



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz


O'ZBEKNING BUYUK YO'LI



Samarqandning o'tmishi nihoyatda qadimiy. Ammo bu kentni o'z saltanatiga markaz qilgan, uning ulug'vor va sharaflari tarixida o'chmas iz qoldirgan, shaharning salobatiga salobat qo'shgan hukmdorlar ko'p emas. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Yalangto'sh Bahodir... Bu nomlar bizgacha bo'lgan ming yillikni tamsil etadi xolos. Holbuki, shaharning tavalludi undan bir necha o'n asrlar nariga borib taqaladi.

Bundan taqriban uch ming yillar oldin ham bu yerda madaniyat va san'at, ilm-u ma'rifat gullab-yashnagan, o'z chiroyi va latofati bilan insoniyat tafakkuriga nur berib turgan. Xususan, miloddan avvalgi IV asrda Samarqandni egallagan Iskandar Maqdunli (Aleksandr Makedonskiy)ning "...U men eshitganimdan ham go'zalroq ekan" degan iqrori tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. O'z davrida dunyoning madaniy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy tayanchlaridan biri bo'lgan Samarqand nafaqat "Yer yuzining sayqali", balki zamonlar osha dunyo tartibini belgilovchi qudrat (derjava) poytaxti ham bo'lgan.

Biroq bu muazzam kentning hayoti doim ham ravon kechmagan. Sohibqiron Amir Temur, so'ng uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davri, yana ikki asr o'tib XVII asrning birinchi yarmida (o'sha vaqtda Samarqand Ashtarxoniyalar sulolasi hukmron bo'lgan Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan) hokim Yalangto'sh Bahodir zamonlarida gullab-yashnagan moziydan ma'lum. Ammo muarrixlar undan keyingi pallalar haqida ko'p so'zlamaydi. Buning sababi oddiy: chunki undan so'ng shaharning o'tmishida



tanazzul davri kechgan... Ko'p uzoqqa borish shart emas. XIX-XX asrlardagi avval Chor Rossiyasi, keyin bolsheviklar bosqinida u katta talafotlar ko'rganini barchamiz yaxshi bilamiz. "Tenglar ichra teng" bo'lgan yoki istiqlol tongi otgan ilk yillar ham ko'hna kent tarixida ta'sirchan ahamiyat kasb etmadi.

Sovet hokimiyatining Samarqanddan ko'zlagan maqsadi ancha ustakorlik bilan o'ylab topilgandi: mustabid ideologiya shahar xarobalari va o'tmishini ko'z-ko'z qilish orqali dahriy hamda repressiv imperiya Islom va Sharq madaniyati homiysi sifatida taqdim etish, undan umumtarix va

qadriyatlar vitrini – multikulturalizm, ya'ni sovetcha tenglik hamda bag'rikenglikni ko'rsatish uchun foydalanardi.

Mustaqillikdan keyin bu qadimiy kentga e'tibor boshqa tomonga og'di. Endi unga ko'proq o'zlikni topish, ruhiyatdagi posttotalitar holatni deformatsiyalash uchun qo'llanadigan vosita o'laroq yondashila boshlandi. To'g'ri, ayni yangilanishlarni shunchaki formal o'zgarishlar edi, deysh adolatdan bo'lmaydi. Chunki obidalar, qadamlar, me'moriy yodgorliklarni tiklash va obod qilish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Ammo bu harakatlarni shaharning

qadimiy shuhratini tiklash va eng muhimi, uning asriy ruhiyatini qayta uyg'otishdek qudratni namoyon eta olmadi.

Nega? Chunki istak va harakat qanchalik samimiy va ko'lamli bo'lmasin, ularda shaharning tarixiy xotirasi hamda mohiyatini to'liq tiklash uchun zarur bo'lgan ichki mazmun va uyg'unlik yetishmadi. Jo'ngina aytganda, shonli o'tmishi, ma'naviy identligi unga "tarix ikonasi" sifatida qarashdek uzoq yillar ongimizda shakllangan glamur tasavvurlar soyasida qoldi.

(Davomi 2-3-sahifalarda.)

ABADIYAT ORALAB...

Navoiydan ulgi olib...



Olimlar bor, faqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Olimlar bor, kashfiyotlar barobarida rahbarlik ishi va ilm tashkilotchiligidagi mahsuldor faoliyat ko'rsatadi. Filologiya fanlari doktori, professor, ikki karra Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Abduqodir Hayitmetov ham ulug' olim, ham mohir rahbar edi. Kamina 17 yil (1977–1994) mobaynida Abduqodir Hayitmetov rahbarlik qilgan O'zR FA Til va adabiyot instituti O'zbek adabiyoti tarixi bo'limida ishladim. Ustozning bir yigit umrichalik faoliyati ko'z o'ngimda kechgan. U kishi ishga juda talabchan, intizomsizlikka, ko'zbo'yamachilikka, ilmga xiyonatga nisbatan ayovsiz, ayni paytda, insoniy munosabatlarda o'ta mehribon va g'amxo'r edi.

(Davomi 4-sahifada.)

MILLAT FIDOYILARI

NUQTA

XX asr boshlarida jadidlik harakati ta'sirida kamol topgan, millat taqdiriga daxldor masalalarda jonbozlik ko'rsatgan ziyolilardan biri Mahmudbek Qoziyev edi. Minglab ma'rifatparvar insonlar qatori u ham stalincha qatag'onning shafqatsiz tegirmonidan omon chiqmadi...



(Davomi 7-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qaroriga binoan, mamlakatimizda 27-may Qurbon hayiti bayrami sifatida nishonlanadi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etilgan bunyodkorlik loyihalariga ko'ra, Pokistonning Islomobod shahrida va Andijon viloyatidagi Bobur shahrida Zahiriddin Muhammad Bobur haykali o'rnatiladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Orolbo'yi mintaqasini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha maslahatchisi, senator Xudaybergenov Tursinxan Aydarovich "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi.

✓ Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2025-2026-o'quv yili yakuni munosabati bilan "Yuksak ma'rifatli avlod – Uchinchi Renessans poydevori!" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari tashkil etiladi.

ILM YO'LI

YOZILMAGAN TARIX IZIDAN

O'zFA Milliy antropologiya instituti direktori, tarix fanlari doktori Farhod MAQSUDOV bilan suhbat



– O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlarning bugungi asosiy ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

– Bizda qo'riqlanadigan, muhofaza qilinadigan arxeologik meros milliy ro'yxatiga 4800 dan ortiq yodgorlik kirgan. Har yili ko'plab yangi yodgorliklar qo'shilyapti. Besh mingga yaqin degani, bu hazil narsa emas, bu – arxeologik jihatdan juda boy meros. Bugungi kunda O'zbekistonda arxeologiya fanining ustuvor yo'nalishlari jahon arxeologiyasida bo'layotgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqadi.

(Davomi 6-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

IZHOR

O'tmishning sasini solum sozimga, Noming goh tiqilib qolar bo'g'zimga, To'liqlanib kelar yoshim ko'zimga, Pahlavonning bo'lgim keladi men ham, Seni Temur haqqi sevaman, Vatan!

Mening senga bo'lgan dardim bedavo, Dushmanga tik turib qilaman da'vo, Charxi dun aylasa bag'ringdan judo, Qashqarda ham xumori bo'lib yuraman, Seni Furqat kabi sevaman, Vatan!


Kuyaman, sog'inib quyoshing taftin, Senga talpinarman tegsin deb nafim, O'lsam ham bayrog'ing tutadi kaftim,

Xohlasang, ey yurtim, qasam ichaman, Seni Kubro kabi sevaman, Vatan!

Sen-la tumalarni kutgim keladi, Armonlaring birga yutgim keladi, Gardingni kiprikda tutgim keladi, Takroring yo'q hatto Hindistonda ham, Seni Boburdayin sevaman, Vatan!

O'tdi xirmonda xor, o'kingan palla, Paxtazorga zor-zor sochilgan alla, Bugun zamonang tinch, kuyla baralla, Mehri daryo misol ona yurt, o'lkam, Seni onam kabi sevaman, Vatan!

Sanjar TEMUR
Qarshi shahri 3-maktab o'quvchisi



SAN'AT OLAMIDA



SIYRAT



survratlari

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, fotojurnalist Abdug'ani JUMA bilan suhbat

– Abdug'ani aka, Sizning ilk ijodga kirib kelgan davringizdagi fotoapparatlar bilan hozirgilarining o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Hozir fotosan'atkor uchun texnik qulayliklar bisyor. Shunga qaramay, bu sohaga ko'ngil bergan ijodkor yoshlar oz. Tutib olingan va tarixga muhrlanayotgan lahzalar ko'pincha avvalgidек yurakni qalqitmayapti yoki suratlarda yurak urib turgani sezilmayapti...

– Fotograf malakali rassom va badiiy didi baland shaxs bo'lishi kerak. Bu yumush – chin ma'noda ijodkorlik. Fotograf so'zi mazmunan ham rassom, ya'ni "nur

bilan chizaman" degani. Tasavvur qiling, fotograf uch oyoqli kamerani yelkasiga olib, manzara kompozitsiyasini suratga olish maqsadida birgina "chiq" tovushini chiqarish uchun qancha yo'l bosib, qancha fursat poylashiga to'g'ri keladi. Badiiy obrazda ruhiy holatni (tabiat, arxitektura manzarasi, portret) "ushlab olish" uchun ijodkorning o'zi ana shu holat ichida yashashi lozim. Shunda kadr uchun zarur barcha ranglarni ko'ra oladi, soya va nur mutanosibligining bor nazokatini his qiladi va asar yaratishning texnik yechimini to'g'ri topadi.

(Davomi 5-sahifada.)



Boshlanishi 1-sahifada.

Aslida Samarqandni tushunish, jug'rofiy ahamiyatini aniqlab olish o'ta muhim edi. Nimaga desangiz, bu ko'hna zamin faqat moziy osori-atiqalariga emas, balki uning bag'rida ming yillardan buyon yashab kelayotgan xalq uchun ham vatan sanalardi. Buni to'g'ri anglash uchun bizga xiyla uzoq vaqt kerak bo'ldi.

Ayni masalada fikr yuritishni bir nafas kechiktirib, diqqatimizni bugungi kunlarga qaytarsak.

O'tayotgan o'n yillik Samarqand hayotida yangi davrni boshlab berdi. Men bugungi maqolada ayni o'zgarishlarni mufassal sharhlash fikridan yiroqman. Zotan, shaharning hozirgi qiyofasi, u yerda olib borilgan bunyodkorliklar haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Bir paytlar Sohibqironning qudratli saltanatiga bosh kent bo'lgan, olamni o'ziga mahliyo aylagan, xorijiy sayyohlar va siyosatchilar qadami uzilmagan shahar bugun asl shavkatini tiklayotganini barchamiz sezib turibmiz. Hech mubolag'asiz aytilish mumkinki, uzoq tanaffusdan so'ng u yana dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari yig'ilib maslahatlashadigan xalqaro diplomatiya sahna-siga aylandi. Kelayotgan xorijlik mehmonlar, hatto sayyohlar og'zidan ham bir e'tirofni ko'p eshitish mumkin bugun: "Samarqandga etkaklardagi, tarix kitoblaridagi jozibasi qaytibdi!"

Endi aytimg, odamlardagi taassurotni yangilash, zamonlar yuki monolitdek quyib qo'yg'an stereotiplarni parchalash o'z-o'zidan bo'ladi, deb o'ylaysizmi?! Iddaomiz bekorga emas. Zotan, shaharning ko'r-k-u tarovati faqat besh-o'nta me'moriy yodgorlik bilan o'lchanmaydi. Qolaversa, "o'tmish ruhi" tasavvuri chechan gidlarning maroqli hikoyalari orqali to'liq shakllanadi, deb qarash ham unchalik to'g'ri emas.

Qadim tarovatni uyg'otish faqat bir amal – ko'hna devorlar, tuproqlar qa'rida ko'milib yotgan madaniy ohanglarigagina tan. Ularni harakatga keltirish uchun esa tarixiy-ruhiy hayot qatlamini qayta ko'rib chiqish talab etilardi. Ya'ni nafaqat shahar, balki butun yon-atrofdagi madaniy hayotni tubdan o'zgartirish, ilmiy tilda aytganda, jamiyat hayotini desovetizatsiya – mustamlakachilikning barcha meroslaridan tozalashni nazarda tutardi. O'z-o'zidan ravshanlik, bu katta mashtabdagi yumush edi. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, Samarqandning qayta "oyoqqa turishi" oson kechdi, degan odam adashadi.

2001–2003-yillarda shu yo'ldagi mashaqqatli mehnatni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Aynan o'sha yillari Shavkat Mirmonovich Jizzaxdan bu yerga ishga o'tgan va ayni mas'uliyatning og'ir yuki u kishining yelkasiga tushgandi. Bugun ba'zi davrlarda ham hayrat, ham taajjub bilan "Yangi hokim ish boshlagan kezlarda idora hududidan falon mashina chiqindi olib chiqqan ekan", degan gaplar ham ayni davrlarga tegishli. Eshitgan quloqqa garchi lofga o'xshab tuyulsa-da, haqiqatan ham, shunday bo'lgan. Bo'lganda ham, u kishi masalaga kechiktirib bo'lmaz, eng muhim yumushdek yondashgani hozirgidek yodimda. O'shanda mening ham "Shuncha ish turib, faoliyatni nega bundan boshladi?" deya ajablangan vaqtim bo'lgan. Ammo keyin tushundim. Anglaganim shuki, bu hodisa nafaqat obodonchilik ishlari, balki uzoq yillar esdan chiqqan, tuzumlar va siyosatlar nazaridan chetda qolgan, ba'zan esa takabburlik bilan ko'zga ilmay qaralgan ruhiy yangilanish sari solingan bir yo'l ekan.

Ayni mulohazalarni qat'iy aytishimning boisi bor, albatta. Chunki Shavkat Mirmonovich Toshkent va Jizzaxda bo'lgani kabi bu yerda ham ishni ozodalik va sarishtalikdan boshlagan edi. Esimda, butun viloyat bo'ylab boshlagan obodonlashtirish ishlari nafaqat hududlarni, balki odamlar ko'nglini ham yoritib yuborgandi o'sha kezlarda. Mavzu konteksidan kelib chiqib masalaga falsafiyroq yondashadigan bo'lsak, ayni o'rinda ko'zdan panada qolayotgan majoziy ma'noni ilg'ashimiz mumkin: Shavkat Mirziyoyev ushbu ishga jazm qilar ekan, haqli ma'noda afsona-yu rivoyatlar, zafar va g'alabalar shavqi, shon-u shavkati cho'kib yotgan qadimiy va buyuk shahar bag'rini ham qora o'tmish g'uborlaridan poklayotgandek edi.

Darhaqiqat, Samarqandning ma'naviy qiyofasi, ruhiyatidagi yuksalish aynan shunday boshlangandi, desam, hech ham adashmagan bo'la-man. Zotan, har qanday buyuk ishlar, ulug'vorlik poklik poydevori ustiga quriladi.

Ba'zi davlatlarga safar qilgan odamlarning "aeroportdanog yomon hiddan nafasim bo'g'ilib qoldi, ko'chalardagi axlat uyumlarini ko'rib, ko'nglim aynidi, kayfiyatim buzildi", deganga o'xshash hikoyalarni ko'p bor eshitgan bo'lishingiz mumkin. Ha, aslida bepisand qaraydiganimiz ozodalik shunchaki "ro'zg'orbo" tushuncha emas, u ruhiyat ko'zgusi, ichki madaniyat ifodasidir.

Aslini olganda, Shavkat Mirziyoyev siyosiy yo'nalishida men ayni ustuvorlikni bundan ancha ilgari, uni tanigan yillarimdayoq sezganman. O'tgan asrning 80-yillari oxirlari, 90-yillari boshida mamlakat siyosiy maydonida paydo bo'lgan yosh yigit harakatchanligi, chechanligi bilan tezda ko'pchilikning e'tiboriga tushgandi. O'zni kelganda bir mushohadam bilan o'rtoqlashib o'tishim zarur, deb o'ylayman. O'qiganlarim va hayot tajribamga tayanib aniq ayta olamanki, bu dunyoda tasodiflar yo'q. Fikrimni yanada ochiqroq bildiradigan bo'lsam, buyuk shaxsiyatlar o'zlari haqida birinchi qadamlaridanoq ishora berishadi...

Xalqimizda "Yaratganning nazari tushmasa..." degan mag'zi to'q hikmat bor. Asrlar davomida o'z mohiyatini yo'qotmagan, ota-bobolarimizning falsafadagi determinizm tushunchasiga uyqash



Qudratilla RAFIQOV,
siyosatshunos

ushbu "xulosa"si, haqiqatan ham, biz odatda tasodif yoki omad deya ta'rifiyladigan voqealar zamirida inson anglab yetmaydigan qonuniyatlar borligini esga solib turadi.

Bo'lmasa aytimg, Jizzaxning olis bir qishlog'ida o'sgan yoshgina yigit Oliy sovetga deputat, poytaxtning markaziy rayonlaridan biriga hokim bo'ladi, deb kim o'yilagan o'sha damlar?! Holbuki, sovet va undan keyingi dastlabki davrlarda ham "shaharga faqat shaharliklar" deganga o'xshash mutlaqo asossiz, yozilmagan qoida hukmron edi.

Mayli, rasamadi bilan quyiroqda hali bunga vaqt ajratamiz. Aslida bosh mavzumiz Samarqand, Shavkat Mirziyoyevning ayni viloyatdagi faoliyati to'g'risida edi. Biroq gapning o'zani sal narioroqqa, u kishi ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelgan ilk damlarga burilib ketdi. Ehtimol, bunda ham bir hikmat bordir. Zero, mohiyatni anglash uchun, avvalo, uning zamiriga nazar tashlash lozim, deyishadi-ku ulug'larimiz.



Favqulodda qobiliyatli odamlarga yashash va ishlash hamma zamonlarda ham oson kechmagan. Masalan, g'ayrat-shijoati, dunyoqarashi va g'oyalari jamiyatdagi an'anaviy tushunchalardan farq qiladigan, olmon faylasufi Immanuel Kant ta'бири bilan aytganda, odatdagidan ilg'orroq "aql" atrofini ilhomlantirish bilan birga tevarakdagilarda yetarlicha xavotir ham uyg'otishi mutlaqo bor gap. Bunga tarixiy-siyosiy adabiyotlardan ko'p misollar keltirish mumkin. Biroq omadim shundaki, ayni hodisani men kitob yoki arxiv hujjatlarida emas, o'z hayotimda ko'rganman.

U kishini hali institutda ishlayotgan kezlaridanoq bilardim. Chunki "gorkom"dagi ish faoliyatim avvaliga aynan fan va o'quv muassasalari, keyin ham shunga yaqin – mafkuraviy yo'nalish bilan bog'liq edi. Ochiq aytaman, o'sha kezlar harakatchan, ko'zidan o't chaqnaq turadigan, o'ta tarbiyali va yoshiga nisbatan xiyla mulohazali bu yigitga ortiqcha e'tibor bermaganman. Nazdimda, u oddiy bir oliy o'quv yurtining ilmiy xodimi, nari borsa, navqiron pedagog-g'iyoli edi. Uning men, qolaversa, shahar jamoatchiligi va yuqori elitaning tasavvurlarini to'zg'itib yuborgan, umumsiyosat sahnasida Shavkat Mirmonovich degan har tomonlama hurmat-e'tiborga sazovor ism-sharif bilan hisoblashishga majbur qilgan davri 90-yillar boshiga to'g'ri keladi.

O'shanda Mixail Gorbachyovning hamma yoki ostin-ustun qilgan "qayta qurish va oshkoralik" zamonlarining so'nggi yillari, olatasir, birov birovni eshitmaydigan, hamma gapiradigan davrlar edi. Aynan o'sha yili Respublika oliy soveti deputatligiga saylovlar bo'lib o'tadi. Endigina 33 yoshga kirgan, poytaxt hayoti, hokimiyatning shafqatsiz "o'yinlari"ni hali ich-ichidan bilmagan yoshgina yigit o'z nomzodini xalq vakilligiga qo'yadi.

Shundaygina ko'z yugurtirib o'qiganda silliq o'tib ketadigan bu gaplar juda murakkab vaziyatni ifoda etadi, aslida. Chunki nomzodlar ancha nomdor, tajribali, bundan-da muhimrog'i, hukmron siyosiy a'yonlarga yaqinroq (ochiq aytganda, u kishidan bo'lak bari "tanlangan"lar) edi. Keling, da'vomiz asossiz bo'lmisligi uchun o'sha yili Shavkat Mirmonovich bilan "siyosiy marafon"ga kirgan faollar nomini sanaymiz. Shu o'rinda eslatib o'tay, asosiy saylovga kirguncha talabgorlar sakkiz kishi bo'lgan. Chig'iridan esa uch kishi o'tadi. Bular o'sha yillardagi Toshkent militsiya oliy maktabi (hozirgi IIV akademiyasi) rahbari Nikolay Ivanovich Ojiganov, O'rta Osiyo irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti (ma'lumot uchun aytay, o'sha vaqtlarda bu dargoh nafaqat mintaqada, balki butun ittifoqda ilmiy-amaliy salmoqqa ega edi) direktori Viktor Abramovich Duxovniy...

Tabiiyki, bular orasiga mahalliy miqyosdagi institut o'qituvchisi, buning ustiga "yuqori" hali yetarlicha bilmagan yosh yigitning qo'shilib qolishi ko'pchilikni ajablantirdi. Ba'zilar buni shunchaki

rasmiyatchilik uchun qo'yilgan qadam deb o'yilagan bo'lsa, birovlar kibirini ochiqcha ko'rsatib, mug'ombirona jilmaydi: "Kecha qishloqdan kelgan bolaga bunday jiddiy tadbirida nima bor ekan?"

E'tirof etish kerak, ularning iddaosida jon bordek edi. Nega desangiz, nomzodlari ko'yilganlar orasidagi Ojiganov huquq-tartibot, qolaversa, respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida ancha e'tiborga ega odam edi. Duxovniy esa, boya qavs ichida alohida atay izoh berganimdek, nafaqat O'zbekiston, balki ittifoq miqyosida katta qudratga doxil a'yon o'laroq mutlaq g'oliblikka haqlidek tasavvur uyg'otardi. Chunki uning qo'lida muhim dastak – irrigatsiya va suv masalalari jamlangandi.

Yaxshi bilasiz, o'sha davrlar butunlay agrar tarmoqqa "o'tirg'izilgan", "kindigi bir" mintaqasi respublikalari uchun bu soha hayot masalasi edi, go'yo. Shuning uchun Duxovniy egallagan martaba ta'siri nafaqat Lenin (bugungi Mustaqillik) maydoni biqinidagi SK (Центральный Комитет – Markaziy Qo'mita) binosining serhasham hujralarida, balki bizga qo'shni bo'lgan barcha respublikalarni "mahv" etib, Shimolda joylashgan "markaz"ning qirmizi gumbazli saroylarida ham tantanali tarzda aks sado berib turardi. Shu sabab saylovchilar uchun ham, shunchaki vaziyatni kuzatib turgan tomoshatalab odamlar uchun ham natija qiziq edi. Yakun shunday bo'ldiki, to'liq oshkoralik va erkinlik asosida o'tgan saylovda Shavkat Mirziyoyev raqiblaridan katta farq bilan ustun keldi...

Albatta, shu o'rinda savol tug'iladi: qatoridagi siyosiy qudratga, obro' va martabaga ega bo'lgan nomzodlarni u kishi qanday ortda qoldirib, deputatlik maqomiga erishdi?

Men ashaddiy fatalist emasman. Biroq yuqoridagi keltirganimdek, ota-bobalarimizdan meros "taqdir", "peshonasiga bitgan" degan azaliy tushunchalarni to'liq inkor ham etolmayman. Qolaversa, u kishining g'olib bo'lishida tabiatdagi shiddat, harakatchanlik va insonlarga cheksiz mehr, noyob odamgarchilik xislati ham asos bo'ldi, deb o'ylayman. Chunki u institutda faoliyat yuritayotgan o'sha damlarda ham tumanda faol sifatida yaxshi tanilgan, mahallalar ahli, talabalar mehrini qozonib ulgurgan edi.



Yuqorida bir mulohazani boshlab, davom ettirishni ortga surgandik. Nazarimda, endi uning mavridi keldi. Sovet davrida garchi "biz katta bir oila" degan balandparvoz shior ustuvorlik kasb etgan bo'lsa-da, bu chaqiriqqa nisbatan skeptik qarash yo'q emasdi. Deylik, "og'a-ini"larning har birida, garchi pinhona bo'lsa-da, o'z manfaati yoki ijtimoiy-siyosiy identligini yuqoriroq qo'yishga, barcha hali yitoy-zu rag'batlarga, avvalo, ular haqli ekanini isbotlashga tiyiqsiz urinish istagi bor edi. Ayni shu "xususiyat" milliy respublikalar ichida ham ko'zga tashlanardi. Boshqalarni chetga surib, o'zimiz haqimizda gapiradigan bo'lsam, o'sha davrlarda kim qaysi viloyatdan, vohadanmi, vodiyanmi, sal pastroqqa qarab tushsang, rayonma-rayon, urug'-aymoq surishtirish, xullas, hokimiyat iyerarxiyasi shakllanishida ochiq aytimasa-da, shunday o'lcovning borligini tamoman inkor qilib bo'lmashdi. Shavkat Mirmonovichning deputatlik saylovlarida va undan keyin 1992-yilda Mirzo Ulug'bek tumaniga hokim bo'lishida ham bu sezilgan.

Masalaga kengroq yondashganda, aslida xalq tilida soddagina qilib "mahalliychilik" deyiladigan, ammo jiddiyroq qarasangiz, qaysirdi ma'noda ijtimoiy diskriminatsiyaga ham o'xshab ketadigan bu xavfli qusur nafaqat Toshkent, balki umumjamiyatimizga xos xavfli illat edi. Oddiy tushuntirganda, Qashqadaryoga qashqadaryolik, Buxoroga buxorolik, Namanganga faqat Namangandan chiqqan kadrgina rahbar bo'lishga munosib, degan xalqni bo'lib tashlashga, birlik va yakdillikka raxna soluvchi qarash edi bu.

Men aniq bilmayman, bunday radikal kayfiyat, qarash bizda qachon paydo bo'lgan?.. Ehtimol, uning shakllanishi o'tgan asr boshlariga borib taqalar. Bilmadim. Har qalay, kommunistlarning o'sha yillari "milliy respublikalar va millatlar" "yaratish" siyosati" oldin na etnik va na hududiy itxtiloflarga borgan turkistonliklar o'rtasida o'ziga xos ayirmachilikni keltirib chiqargani bor gap.

Tabiiyki, bo'lib tashlab boshqarish ularning manfaatiga mos edi. Jumladan, o'lkadagi milliy kelishmovchiliklar – hudud va madaniy meros, etnos yoki etnogenez atrofidagi "g'ijilashish"lar pinhona davom etarkan, bundan "markaz" atay ko'z yumardi. Chunki hamijhatlik va ruhiy yaqinlikning yo'qligi mintaqaga doimiy o'zlik baxsh etib turishini ular yaxshi tushunishardi. Biroq sovetlardan o'zlashtirilgan salbiy tajriba, "bo'lib tashlab idora qilish siyosati", garchi zararimizga bo'lsa-da, bizda kechagacha davom etdi. Xususan, mustaqillikdan keyin ham viloyatlar va hatto tumanlarni bir-biridan ajratib turadigan "blok post"lar qo'yilganini nima bilan izohlash mumkin. Ammo Shavkat Mirmonovichning poytaxtda muhim siyosiy personga aylanishi masalasi, yuqorida ishora qilganimizdek, bundan ham jiddiyroq oqibatlarni keltirib chiqargan,

dangal aytganda, o'zini eng muhim a'yon deb hisoblovchi ko'plab mahalliy "zodagon"larni bezovta qilgandi. Albatta, uzoq davrlardan beri bir maromda ketayotgan "ish"lar dinamikasi birdan o'zgarsa, tabiiy ravishda xotirjamlik yo'qoladi. Bu behalovatlikning qat-qatida hasad ham bor edi. Biroq men buni katta ayb sifatida qoralamayman. Zotan, hasad ham nafsga bog'liq. Nafs esa hammamizda bor.

Hatto bashariyat daholari, deb ardoqlaydigan buyuklarda ham hasad bo'lgan. Masalan, nainki rus xalqining, balki insoniyat oliy tafakkurining daholaridan biri Lev Tolstoy o'z zamondoshi, buyuk adib Fyodor Dostoyevskiyini kunlagani (mavqe qizg'anish, rashk qilish) haqida ko'p xotiralar bor. Deylik, u ko'p maqolalarida Dostoyevskiyini "tilning rasvosini chiqargan"likda ayblaydi. Bundan ham achchiqrog'i, Maksim Gorkiy xotiralarida keladi. Unda Tolstoy shunday deydi: "Dostoyevskiy o'zining jinni qahramonlaridan birini o'zi ishonmagan maqsadga xizmat qilgani uchun, o'zidan va boshqalardan o'chini olish uchun yashaydi deb yozadi. Bu gapni u o'zi haqida yozgan, u o'zi haqida xuddi shunday deyishi mumkin edi..."

Xullas, hasad masalasi umuminsoniy, tabaqalarga bo'linmagan bir tuyg'u deyishimiz mumkin. Qolaversa, bu yuqorida aytganimdek, unchalik kechirilmaydigan qusur ham emas. Ammo ochiq dushmanlik bu noinsoniylik belgisi. Shavkat Mirmonovich Mirzo Ulug'bek tumaniga hokim bo'lganida bunday nomardlarcha qilingan harakatlar, dushmanona fitnalarga ko'p bor ro'baro' kelgandi (O'sha paytlari shaharning Sobir Rahimov tumanida hokim bo'lganin uchun bu voqealardan yaxshi xabardor edim).

Xalq orasida ancha omallashib ketgan, u kishining o'zlari ham bir necha bor kulib eslagan "Ulug'bek haykali" haqidagi hangoma shulardan bittasi xolos. Aslida kimning "ijod" bo'lsa ham, bu o'ta puxtalik bilan o'ylangan ish edi. Ertalab davlat rahbari xorijlik mehmon bilan birga gulchambar qo'yishi kerak bo'lgan monumentning boshini olib ketish... Chuqurroq o'ylasangiz, ayni buzg'unchilik tashabbuskorlari topilmalari zamiriga "siyosiy majoz"ni ustakorlik bilan berkitishgan: Mirzo Ulug'bek boshining kesilishi aslida shaxsan Shavkat Mirziyoyev siyosiy faoliyatiga qilich sermash edi...

Albatta, shuncha gapdan keyin haqli bir savol o'rtaqa chiqadi: Mirziyoyevga qilingan kinli munosabatning boisi nima edi, uning viloyatdan ekanimi?! Yo'q, bu yerda, hali aytganimdek, undan-da jiddiyroq sabab ham bor edi. Motiv shundayki, poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumaniga tayinlangan yosh hokim shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'z g'ayrati, bilim va iqtidori, noyob qobiliyati bilan favqulodda "uyg'otib" yuborgan va bu ko'pchilikni sergak torttirgandi. Bugun aksariyat toshkentlik faollar, o'sha mahallalar faoliyati shahar hayoti bilan bog'liq bo'lgan, yuragi toza, vijdoni uyg'ok qaxriylar madaniyatiga, orastalik, saranjomlik va bunyodkorlik zavqi bilan ishlash va yashash borasidagi ko'p tajribalarni aynan Shavkat Mirziyoyevdan o'rganishganini ochiq tan olishadi, e'tirof etishadi. Sababi, mahalla va ko'chalar, xiyobonlar qo'zalligi, odamlarni ulug' maqsadlar sari birlashtira olish bobida ushbu tuman nafaqat Toshkentda, balki mamlakatda eng oldingi safda edi.



O'zi, umuman bugungi aytmoqchi bo'lgan gapimiz Samarqand va Samarqand ruhiga qayta "jon bag'ishlanishi" haqida edi. Lekin u yerdagi qilingan ishlar, Shavkat Mirziyoyevning qalbidagi jasorat, Vatanimizga, tariximiz va millatimizga so'ngsiz mehr-muhabbatni ochib berish uchun yuqoridagi hikoyalarni ham aytib o'tish kerak edi, deb o'yladim. Zotan, u kishining shaxsiyati o'z-o'zidan osmondan tushgandek paydo bo'lib qolgani yo'q. U bugungi mavqeyi – xalqining sevimli Prezidentiga aylanguncha qancha zahmat chekdi, ne-ne balo-qazolardan omon chiqqa oldi. Bu Yaratganning biz uchun buyuk bir tuhfasi, albatta.

Endi asosiy mavzu – Prezidentimizning Samarqandda amalga oshirgan ishlari, u yerdagi faoliyati haqida bafurja gaplashsak. Negaki, u kishining ayni shu viloyatdagi faoliyati, tajribasi mamlakatimizning bugungi istiqboliga tagzamin bo'ldi, desam, adashmagan bo'laman.



O'rta asrlarda "G'arbda Rim, Sharqda Samarqand" degan ta'rif paydo bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz, bundan faxrlanib yuramiz. Ammo yuqorida aytib o'tganimizdek, bu qadimiy kent ham xuddi inson taqdiridek murakkab yo'lni kechib o'tgan.

Bir misol, garchi 2001-yilda Samarqandning me'moriy-tarixiy yodgorliklari YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgani shaharning xalqaro maqomini yana bir bor tasdiqlagan bo'lsa-da, o'sha davrdagi real manzara uning shuhratiga soya solib turar, xalqaro tashkilotning e'tirofi esa shunchaki uning yoshi va shonli o'tmishiga

ko'rsatilgan hurmat ramzidek taassurot qoldirardi. Infratuzilmani qo'yib turaylik, oddiygina maishiy madaniyat degan matoh ham shahar hayotiga begonadek edi.

Viloyat iqtisodiyoti ham xuddi shunday og'ir ahvol – tanazzulda edi. Sanoat va tadbirkorlik rivojlanmagan, qishloq xo'jaligida yillar davomida yig'ilgan muammolar an'anaviy tus olgandi. Eng achinarlisi, 4 millionga yaqin aholining atigi 7 foizi tadbirkorlik bilan shug'ullanardi. Va ayni ko'rsatkich, taassufki, hudud iqtisodiyotining ichki imkoniyatlari to'liq ishga solinmaganidan, aholining tadbirkorlik va biznes rivojiga ishonchi so'nganidan ham darak berardi.

Ana shunday murakkab bir pallada Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati hokimi etib tayinlandi. U o'sha paytdayoq yaxshi anglagan ediki, bu nafaqat taqdirning siylovi, balki viloyatda olis davrlardan to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy "meros" qarshisidagi sinov ham edi. Shu sabab u ko'pchilikka o'xshab ishni kabinetdagi majlislar yoki "telefon boshqaruvi" amaliyotlaridan emas, to'g'ridan to'g'ri odamlar orasiga kirishdan boshladi.

Tushunmovchilik bo'lmisligi uchun bir gapni aytib o'tay. U kishining ishlari, faoliyatini xuddi yonida turgandek hikoya qilishimning sababi bor. Chunki Shavkat Mirmonovich viloyatga tayinlangan ilk damlar va undan keyin ham men deyarli doimo yonlarida hamnafas bo'lganman. Shuning uchun aniq eslayman, yangi rahbar ilk ish kunini Samarqand xalqaro aeroportidagi holatni ko'zdan kechirishdan boshladi (ehtimol, bugun shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan yangi aeroport qurilishi shu mahallar u kishining ko'ngidan o'tgandir). O'shanda bir guruh faollar hamrohligida yo'l-yo'lakay ko'chama-ko'cha, mahallama-mahalla piyoda aylanib, hududning haqiqiy ahvoli, odamlarning kundalik dard-u tashvishlarini bevosita sinchiklab o'tgandi.

Natijada ko'p yillik loqaydlik va e'tiborsizlik oqibatida shahardagi yig'ilib qolgan turli muammolar birma-bir yuzaga qalqib chiqdi. Ayniqsa, viloyatning og'ir ekologik holati, ko'chalar, mahallalar va jamoat joylarida uyulib qolgan chiqindilar Samarqandni tozalash va obod qilish ishlari biror kun ham kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylantirgandi. Mubolag'asiz aytganda, ahvol, boya o'zim so'zim davomida shahar gigiyenasi bobida kesatgan, tanishlarimiz safar taassurotlaridagi mamlakatlarimizdan pesh emas. Shu bois bu borada jiddiy "kurash" boshlandi. Bugun obodlik va ozodalik bobida viloyat namunasiga aylanib ketgan hodisa – birgina iborat hokimligi va uning atrofidan qariyb 70 ta yuk mashinasida chiqindi olib chiqilgani vaziyatning nechoqli ayanchli tus olganini tasdiqlab turardi.

Bu hali hammasi emas edi. Ahvol shu darajaga yetib boggandiki, mavjud kuch va texnika bunday keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari, qolaversa, maqsadni to'liq amalga oshirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Ana shunda shahar hududi sektorlarga bo'linib, har bir mahalla va ko'chaga aniq mas'ullar birkiritildi. Keyinchalik butun mamlakat miqyosida joriy etilgan "Sektor tizimi"ning dastlabki namunasi aynan shu jarayonda shakllandi.

Xullas, yillar davomida qo'qim (chiqindi) bosib ketgan ko'chalar va mahallalar qisqa vaqt ichida yangicha qiyofa kasb eta boshladi. Eng muhimi, o'zgarishlar faqat markaziy ko'chalar yoki viloyat markazi bilan cheklanib qolmadi. Ilgari hech bir rahbar qadam bosmagan chekka hududlar, e'tibordan panada qolgan mahallalar ham yangilanish jarayoniga "tortildi".

Ko'pchilik yaxshi biladi, shahar biqinidagi Fidoiylar va Sarbadorlar kabi mahallalarda azaldan shu yerlik aholi "ko'llilar" deb ataydigan yurtodoshlarimiz istiqomat qilishadi. Garchi mavzudan chiqsam-da, gapimtushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi uchun ochiq aytib qo'yay: tashqaridan qaraganda, insonga nisbatan go'yo kamsitish yoki milliy ayirmachilikka o'xshab tuyuladigan ta'rif aholi orasidagi mutlaqo hayotiy munosabat aslida. Chunki xalqimiz biror ijtimoiy jamoaning "kim"ligini ifodalash uchun "qozoq", "qirg'iz", "tojik" yoki yanada traditsional qatlama o'tadigan bo'lsak, "qo'ng'irotlar", "barloslar" degan etnik tushunchalarni bajonidil qo'llashadi va bu ayb ham, haqorat ham hisoblanmaydi. Ayni konseptdan kelib chiqsak, ko'llilar ham hammamiz qatori shu yurtning aziz farzandlari sanalishadi. Shu o'rinda men aytmoqchi bo'lgan fikr bu mulohazalardan anchagina farqli, ya'ni Shavkat Mirmonovichning insonparvarligi, odamlarga bo'lgan yuksak hurmati, mehri bilan bog'liq masaladir. Samarqandni bilgan odamlar yaxshi xabardor, bu mahallalarda yashovchi aholida shu paytgacha na tug'ilganlik haqida guvohnoma, na pasport bo'lgan. Ochig'i, ushbu amaliyotni amalga oshirish haqida kimdir o'yab ko'rganiga ham shubha bor. Shavkat Mirziyoyev esa ularga qonuniy tarzda shaxs, yashash va mol-mulk huquqini beruvchi guvohnoma hamda pasport berish tizimini yo'lga qo'ydi. Ushbu yurtodoshlarimiz ham Vatanimizning chin fuqarolari bo'lish sharafiga muyassar bo'lishdi. Mahallaning maktab ostonasini ko'rmagan bolalar ilm dargohlariga jalb qilindi.

SHAVKATI

Aholining idorama-idora yurib sarson bo'lishiga sabab bo'lgan og'riqli muammolari yugur-yugursiz, aynan shu yerning o'zida hal etildi.

Bir so'z bilan aytganda, odamlarning dardini eshitish, muammoni joyida hal qilish, eng muhimi, "Davlat – xalq uchun" degan ezgu tamoyil ana shu davr boshqaruvining asosiy mezoniga aylangandi.



Eslatib o'tganimizdek, Samarqand faqat "Samarqand"dangina iborat emas. Ushbu toponim faqatgina me'moriy artefakt yoki madaniy merosdan tashqari, shu diyorda ming yillardan buyon yashab kelayotgan millionlab odamlar – samarqandliklar va ularning hayotini ham ifoda etadi. Shundan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, viloyat ma'murchiligi haqida ham alohida to'xtalish kerakligini anglab yetamiz. Chunki ko'hna shaharga nur va shukuh beradigan eng muhim sifat – xalqning kayfiyati, turish-turmushidan rozilik alomati bo'lgan ko'zlaridagi quvonch va shodlik uchqunlaridir. Ayni nuqtayi nazardan olib qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish ham o'ta dolzarb, ortga surib bo'lmaydigan vazifa edi viloyatda. Nimagaki, hududdagi o'lda-jo'ldalik, samarasiz qaror va topshiriqlar, tashabbuslar odamlarni ishdan bezdirdgan, davlat va umumsiyosatga ishonchini susaytirgandi. Shavkat Mirziyoyev kelganidan taxminan bir yil o'tib, aniqlik, 2002-yilning birinchi choragida viloyat iqtisodiyotida keskin ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlandi: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 107,3 foizga, xalq iste'moli mollari esa 112 foizga bajarilib, barqaror o'sish sur'atlari qayd etildi. Albatta, bu natija ortida odamlarning qayta uyg'ongan ishonchi, boshqaruvga nisbatan tiklanayotgan umidi yetardi. Biroq viloyatning asosiy drayveri bo'lgan qishloq xo'jaligidagi ahvol hamon murakkab edi: yer unumdorligi, ya'ni bonitet darajasi keskin pasayib, ayrim hududlarda 10 ballgacha tushib ketgani hosildorlikka keskin ta'sir ko'rsatgandi.

Ayni vaziyatdan chiqish uchun Shavkat Mirziyoyev masalaga ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan yondashdi. U kishining tashabbusi bilan ko'pni ko'rgan oqsoqollar, chuqur bilim va tajribaga ega mutaxassislar hamda dehqonlardan iborat "Maslahat kengashlari" tuzildi.

Tashqaridan qaraganda ortiqcha dovruqsiz bu tashabbus viloyat hayotida tub bulirish yasadi. Negaki, xalq tajribasi va ko'magiga asoslangan ayni tuzilma davlat bilan xalq o'rtasida uzilgan rishtalarni tikladi. Boshqacha aytganda, ushbu mexanizm yerga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqish, mavjud muammolarni joyida tahlil qilish va aniq yechimlar ishlab chiqishda muhim omil bo'ldi. Shu yondashuv orqali yer unumdorligini tiklash ilmiy hisob-kitoblari va amaliyot uyg'unligida hal etila boshlandi.

Mavjud imkoniyatlarni to'liq safarbar qilish natijasida har gektar suvli yerga 20,5 tonnadan mahalliy o'g'it berish tizimi yo'lga qo'yildi. Oradan qisqa vaqt o'tgach, bu ishlarning ijobiy samaralari yaqqol ko'rina boshladi – tuproqning biologik holati yaxshilaniib, yerning tabiiy unumdorligi asta-sekin tiklandi.

Islahotlarning navbatdagi bosqichida hududlarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni ixtisoslashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa, o'z navbatida, har bir tumanning o'ziga xos salohiyatini ochish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda muhim strategik qadam bo'lib xizmat qildi.

Jumladan, Toyloq tumani g'allachilikka ixtisoslashtirilib, shaxsan viloyat rahbarining tashabbusi va qo'llab-quvvatlovi bilan Ukrainadan serhosil bug'doy urug'larini olib kelindi hamda sinovdan o'tkazildi. Natijada gektaridan o'tacha 50 sentnergacha hosil olinishiga erishildi.

Samarqand tumanida ilgari e'tibordan chetda qolgan toshloq va unumsiz yerlar o'rmda zamonaviy intensiv bog'lar barpo etildi. Bu tashabbus hudud qiyofasini o'zgartiribgina qolmay, qishloq xo'jaligiga qo'shilgan qiymatni ham sezilarli darajada oshirdi.

Ish-tixon va boshqa tumanlarda mahsulotlarni saqlash hamda bozorga uzluksiz yetkazishni ta'minlash maqsadida zamonaviy muzlatkichli omborxonalar qurildi. Bu esa sarxil mahsulotlar yo'qotilishini kamaytirib, fermerlar daromadini oshirishga xizmat qildi.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'sha yillarda qishloq xo'jaligida asos solingan tizimli yondashuv keyinchalik viloyat agrar tarmog'ining muvaffaqiyat garoviga aylandi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Zero, bir vaqtlar qatqaloq yerga aylangan, hosildorligi past dalalarning yashil bog'ga do'nishi, bu shunchaki agrotexnik tadbirlar samarasi emas, balki dehqon va fermerlar ko'ngliga yo'l topishning o'ziga xos ifodasi bo'ldi.

Aytish o'rinliki, ushbu islohotlar doirasida yana bir og'riqli muammo – hududlarni obi-hayot bilan ta'minlash masalasi ham kun tartibiga chiqdi. Sir emas, bir vaqtlar Qo'shrabot tumanidagi minglab gektar yer maydonlarining "taqdiri" butunlay

yog'ingarchilikka bog'liq edi. Hatto ayrim vaqtlarda lalmikor yerlar suvsizlikdan qaqrab, tuproq yorilib ketar, dehqonning mashaqqatli mehnati behuda sarf bo'lganini ko'rib, odamning beixtiyor ichi achirdi. Ammo oldingi rahbarlarda ham shunday kuyinish tuyg'usi bo'lganmi, yo'qmi, buni bilmadim-u, yangi hokim buni ko'rib chidab turolmagani bor gap. Aynan o'sha yillari Shavkat Mirziyoyevning qat'iy irodasi va uzoqni ko'zlab yuritgan siyosati tufayli hududda sel suvlari to'planadigan "Oqchopsoy" suv omboriga tamal toshi qo'yildi. Shu bilan birga, tabiiy manbalar va mavsumiy sel suvlaridan oqilona foydalanish maqsadida "Oqtepasoy" suv omborini barpo etish g'oyasi ham ilgari surildi. Ushbu tashabbuslar minglab gektar lalmikor yerlarni obihayot bilan ta'minlash, unumdorligini oshirish va hudud qiyofasini tubdan o'zgartirishga qaratilgan muhim strategik qadam sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.



Azal-azaldan suv baraka va farovonlik ramzi sifatida e'zozlanib kelingan. Ehtimol shu bois, xalqimiz u bilan bog'liq ko'plab ibratli rivoyatlar to'qigan, buloq va chashmalarga muqaddasot sifatida ta'rif bergan. Shuning uchun ham Samarqand viloyati ahlining Sangin-Chashmasiyob, Sangarason-Navodon, Obirahmat, Obimashat kabi buloqlar va jig'alarining zilol suvlaridan bahra olgan inson "gunohlaridan poklanadi" degan mulohazalariga hech kim shubha bilan qaramaydi, balki oqayotgan suvdan qonib ichishga intiladi.

Ammo, ming afsuski, o'z vaqtda mahalliy siyosatda tarixiy va odamlar aziz bilgan bunday buloqlarni asrab qolish u yozda tursin, shahar aholisini oddiy ichimlik suv bilan ta'minlash ham eng og'riqli muammoga aylandi.

Yillar davomida e'tibordan chetda qolgan suv quvurlari chirib, xizmat muddatini o'tab bo'lgan, ularni zudlik bilan yangilash ham dolzarb ahamiyat kasb etgandi. Qolaversa, shaharda aholi nufusi kun sayin o'sib, mavjud imkoniyatlar odamlar ehtiyojini qoplay olmay qolgandi. Viloyatning yangi rahbari obi-hayot ta'minoti tizimini isloh qilish, ko'hna kentning "qon tomirlari"ga qayta jon bag'ishlash yo'lida ham qat'iy qadamlar tashladi – aholi toza ichimlik suvidan muammosiz bahramand bo'la boshladi.

Bundan tashqari, toza ichimlik suvini 3-4 kilometr masofadan tashib ichgan Nurobod tumanidagi Sazag'on, Tapaqul va Oqsoy qishloqlari aholisiga yangi suv quduqlari qazilib, ularning obihayotiga talabi va ehtiyoji qondirildi. Bu jarayon o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, viloyat ahlining turmush farovonligini yuksaltirish, inson qadrini ulug'lash va odamlarning yuziga tabassum ulashish yo'lidagi muhim islohotlardan biri bo'ldi.



Hammamizga ma'lum, Shavkat Mirziyoyev Samarqandda ko'p muddat qolmadi: umumiy hisobda ikki-uch yil. Biroq u kishi qoldirgan iz, an'analar mudom o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yaxshi eslaymiz. Bir vaqtlar mamlakatimizda ta'lim sohasida turli islohotlarga qo'l urildi, majoziy aytganda, boshimizni to'g'ri kelgan devorga bir-bir urib chiqdik. Shunday bilarmonliklarimizdan biri "kollejbозlik" siyosati edi. Biz ushbu "ta'lim strategiyasi"ga shu qadar berilib ketdikmi, ilhomimiz tiyiqsizligidan, hatto o'n-o'n besh chaqirim atrofida birorta uy bo'lmagan dasht-u dalalarga ham uch-to'rt qavatli kollejlari barpo qilib tashladik.

Oqibati nima bo'ldi? Buni aytmasam ham, barchamiz yaxshi tushunamiz, anglaymiz. Bu yerda eng og'ir yo'qotish o'rta ta'lim tizimi sohasida bo'ldi. Maktablar qurilishi, ularga e'tibor keskin tushib ketdi. Hamma joyda bo'lgani kabi buning og'riqli oqibatlari Samarqand viloyatida ham ko'rindi. Hududdagi qariyb 1050 ta maktabning ahvoli achinarli darajaga kelib qoldi. Ya'ni ularning deyarli uchdan bir qismi kapital ta'mirga muhtoj, to'xtalish chakkii o'tar, devorlarini xaz bosgan, sinfxonalari esa o'quvchilar ta'lim olishi uchun mutlaqo yaroqsiz holda edi.

Bu holat yurt kelajagi, millat taqdirini o'ylaydigan har qanday odam ko'nglini tashvishga solishi tabiiy edi. Shu bois Shavkat Mirziyoyev faoliyatining to'rtinchi kunidayoq Pastdarg'o'm tumanidagi 72-maktabga bordi. U yerdagi manzarani ko'rib, har qanday insonning yuragi larzaga kelishi tayin edi: xom g'ishtdan qurilgan, tomsuvoqli, sovuq kunlarda isitish imkoni bo'lmagan bu xaroba maskanda 200 nafar bolajon taqdirning achchiq sinoviga dosh berib, ilm olardi...

Moliyaviy imkoniyatlar cheklangan, mahalliy byudjet degan tushunchalar xuddi siyosiy latifadek tuyuladigan og'ir bir sharoitda viloyat hokimi ayni vaziyatdan chiqishning eng tezkor va maqbul yo'lini topdi – bo'sh turgan qurilish tashkiloti binosini maktabga moslashtirish tashabbusini ilgari surdi. Bu favqulodda qaror o'sha vaqtdayoq Shavkat Mirziyoyevning "yo'q"dan "bor" qila olish qobiliyatini namoyon etgandi.

Bino qisqa fursat ichida chinakam o'quv maskaniga aylantirildi va qish ostonasida o'quvchilar ilk bor issiq va yorug' sinf xonalariga ko'chirildi. Ushbu ezgu tashabbusning mantiqiy davomi sifatida esa 2002-yilda shu hududda muhtasham, ikki qavatli yangi maktab binosi qad rostladi. Bugun o'sha joy o'rmda barpo etilgan zamonaviy, barcha sharoitlarga ega ta'lim dargohida 700 nafarga yaqin o'g'il-qizlar bilim olmoqda.

Shu o'rinda men e'tiboringizni muhim bir nuqtaga qaratmoqchiman. Shavkat Mirziyoyev moliyaviy imkoniyatlar cheklangan, maktablar "kollejbозlik siyosati" soyasida qolib ketgan zamonlar ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos yangi tizimi – "yordamchi xo'jalik" modelini joriy etdi. Unga ko'ra maktablar qoshida homiylik va tashabbuskorlik asosida yordamchi xo'jaliklar tashkil qilindi. Ulardan tushgan mablag'lar bevosita ta'lim muassasalarini obodonlashtirish, infratuzilmasini yaxshilash hamda o'quv muhitini yuksaltirishga yo'naltirildi.

Bunday noan'anaviy, ammo xalq manfaatini ko'zlagan amaliy qarorlar tufayli qisqa vaqt ichida viloyatdagi yuzlab maktablarning moddiy-texnika bazasi yangilanib, eski va xarob maktablar o'rmda mutlaqo zamonaviy qulay va barcha shart-sharoitlarga ega ta'lim muassasalari qad rostladi.

Ayniqsa, shunday oqilona yondashuv tufayli Samarqandning turli go'shalarida qad rostlagan 20 dan ortiq sport inshootlari, sobiq "Remzavod"ning tashlandiq hududi o'rmda barpo etilgan Olimpiya xaxiralari sport maktabi hamda "Yoshlar markazi" minglab o'g'il-qizlarning orzulari ro'yobga chiqadigan sevimli maskanga aylanganini bugun alohida qayd etish o'rinni, deb o'ylayman. Bugun ko'pchilik samarqandliklar yaxshi eslashadi: o'sha kezlarda "Toyloq tumanida 5000 o'rinni muhtasham stadion foydalanishga topshirilgan edi.

Eng qizig'i, ushbu inshootlarning hech biri Davlat byudjeti hisobidan qurilmagandi. Bu esa "izlagan imkon topar" degan hikmatli ibora nechog'li haqiqat ekanini amalda yana bir bor tasdiqlaydi.

Shavkat Mirziyoyevning ustoz va murabbiylarga bo'lgan cheksiz hurmati shunchalik ediki, u umuman imkoniyati yo'q davrda ham ularga munosib sharoitlar yaratib berish yo'lida o'zini qiyindardi. Aynan shu ezgu niyat ifodasi o'laroq Oqdaryo tumanidagi sobiq "Kolxozstroy"ning qarovsiz hududi o'rmda zamonaviy "Ustoz" sanatoriysining barpo etilishi viloyat rahbarining ma'rifati ahliga cheksiz hurmati va yuksak ehtiromini yana bir karra namoyon etdi. Shu ma'noda aytish mumkinki, bu maskanning nomi ham, mohiyati ham o'sha kezlardayoq keyinchalik muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan muhim hayotiy haqiqatni anglatib turardi: "Millat tarbiyachisini e'zozlagan xalqning kelajagi porloq bo'ladi".

Sezib turibman, maqolaning so'nggi qismlari sizni zeriktirdi. Ensangizni qotirgan bo'lsa ham ajablanmayman. Ruhi, matndagi xronologik ohang sovet va undan keyingi turg'unlik yillari kayfiyatini eslatuvchi ayni yo'nalish bugun hayotimizda favqulodda "begona"ga aylanib qolgandek... Holbuki, o'sha davrda g'alladan xirmon-xirmon hosil olish, qiziqchimiz aytganidek, "yerni chuqurroq haydash" va hatto mutaxassislar va dehqonlarga tushunishi mumkin bo'lgan terminlarni qalashtirib nutq qilish, maqola yozish normal qabul qilinardi. Chunki daladan boshqa o'ylaydigan, gapiradigan, ko'krak kerib faxrlanadigan hech bir sifatimiz yo'q edi. Sobiq markazdan kelib dalaga qanday qadab ketgan bo'lsa, istiqloлга erishganimizdan keyin ham tafakkur-u ongimiz uzoq yil egatlar orasida qoldi. Paxta va g'alla, keng ma'noda aytganda, ziroatchilik hayotimizning barcha jabhasida ijtimoiy-siyosiy kult sifatidagi tahak-kum – dominantligini xuddi sovet davrlaridagidek aks ettirib turdi. Chuqurroq o'ylab ko'rilsa, ayni safarbarlik ortida "strategik ahamiyat"dan bo'lak yana bir muddad – jamiyatni manipulyatsiya qilish istagi ham yashiringandek edi. Ya'ni odam tinimsiz nimagadir undab turilsa, matbuot ertadan to kech zarbdorlik, dala ishlari, yetib bo'lmaydigan "plan" haqida muttasil gapiraversa, bu holat yangi qanday erkin tafakkurga ham putur yetkazadi. Odamlar fikrini jamoaviy tarzda bir nuqtaga "yig'ish", barcha o'y-xayollarni umumiy bir o'zanga bo'ysundirish, tabiiyki, shaxsiy fikrni jilovlaydi. Hur fikrning shakllanmasligi esa bizning klassik aqidalarimizga uyg'un kelardi.

Umumiy ma'noda ozodligimizning dastlabki chorak asriga jiddiy qaraydigan bo'lsak, erkinligimiz nazariy, hurriyatimiz qaysidir ma'noda "qaram mustaqillik"dek tuyulardi. Ko'cha va xiyobonlarimizga osiladigan shiorlarimiz ham buni bot-bot eslatib turardi: "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma!" Aynan mana shu eskisini buzmay saqlab qolish "an'anasi" millat va davlat "kodi" maqomidagi milliy ramzlarimizda ham o'z "tarovati va teran go'zalligi"ni aks ettirishga ulgurdi. Deylik, mustaqillikka erishganimizdan keyin ham gerbimizdagi chambarkakka alvon-la o'ralgan "iftixorimiz ramzi" bo'lgan paxta va g'alla tasvirlari o'zgarmadi. Nega? Holbuki, Prezidentimiz ko'p bor aytganlaridek, paxtadan oladigan daromadimiz

o'sha yillari bir milliard dollarga yetib-yetmagan. Shu holicha ham ushbu dehqonchilik mahsulotlari bizning ijtimoiy-ma'naviy identligimizni belgilashi kerakmidi? Biz o'z asriy orzu-armonlarimiz, ulug' niyatlarimiz va bu jahondagi ruhoniy "o'zligimiz"ni shu o'simliklar siyosida ko'rishimiz kerakmi?.. Albatta, bu mustaqillikdan keyin ham bir oyog'imiz mafkuraviy jihatdan sobiq tizim xarobalari uzra qolib ketganini anglatadi.

Men bekorga bu to'g'rida gapirmadim. Chunki ayni narrativ "Mirziyoyev davri" bizning dunyoqarashimizni qanday o'zgartirganini yaxshi ko'rsatib bera oladi. Masalan, sal avval eslaganimdek, bir zamonlar nafaqat aktual, balki siyosiy ahamiyat kasb etgan "qishloq xo'jaligi" gurunglari bugun hayotimizdagi qo'rli o'rmini yo'qotdi. Shuning uchun ham bu mavzuda yozish va o'qish endilikda nafaqat an'adan an'adan chiqdi, balki mohiyatan zerikarli, primitiv bo'lib qoldi. Ongimizda sokin amalga oshgan, hali deyarli tahlil etilmagan ayni yangilanishlar bizga bir narsani ochiq eslatib turadi: bizda ittiqoq parchalanganidan keyin ham erkinlik mas'uliyatidan xavotir hissi bor edi (ehtimol, bu siyosiy hokimiyatni "yo'qotib qo'yish"dan qo'rqish bo'lgandir). Jumladan, traditsional tutumlardan voz kechmaslik, boshqaruv hamda jamiyat hayotidagi "an'anaviy ruh"ni saqlab qolishga intilish sezilar, shuning uchun shiorlarimiz ham, hali aytganimdek, milliy ozodlikdan ko'ra ko'proq yaqin o'tmishga qayta chorlayotgandek tuyulardi. Vaqt shuni ko'rsatdiki, mustaqilligimiz va o'zligimizni ifoda etuvchi simvollarimiz – davlat ramzlarimiz mohiyatida ham o'tgan asrning 90-yillardagi siyosiy xavotir, qo'rquv va ikkilanish tajassum topgan. Ayni mavzudagi so'zimni yakunlab shuni aytishim mumkinki, bu olmon faylasufi Erix Fromm tasvirlagan "Ozodlikdan qochish" fenomeniga juda yaqin hodisa edi.

Aytilgan mulohazalar bizning tasavvurlarimizda bugun mamlakatimizning uch xil xarakterdagi ko'rinishini aks ettirishi bilan nihoyatda ahamiyatli: "sovet O'zbekistoni", "postkommunistik O'zbekiston" va "Yangi O'zbekiston"...



Hech esimdan chiqmaydi: u kishi Samarqandda ishlayotgan davrlarda yonma-yon ketarkanmiz, hazil aralash savol berdim: "Goh-gohida uxlab ham turasizmi, Shavkat Miromonovich?"

U kishi o'z odatiga sodiq holda jilmayib javob qildi: "Manzildan manzilgacha moshinada nima qilish mumkin?"

Suhbatimiz garchi mutoyibla ruhida kechgan bo'lsa-da, uning zamirida haqiqat yashirin edi. Men ochiq aytaman, shu paytgacha uning qaysi mahal uxlab yoki oyoq uzatib dam olishini hech kim aniq aytib berolmasa kerak.

Yuragi Vatan va xalq dardi, mehr-u muhabbati bilan urib turadigan, o'z surati va siyratida MILLAT SHAVKATI timsolini tobora yorqin ifoda etib borayotgan Shavkat Mirziyoyevdan biz, kelajak avlod, qolaversa, tarix hali ko'p narsani o'rganishi, saboq chiqarishiga o'zida kuchli ehtiyoj sezishiga men aniq ishonaman.

Hech bo'lmaganda, birgina Vatanni, uning tarixi va o'z xalqini sevishti u kishidan o'rganish, o'zlashtirib olishning o'zi ham olamni gulliston qilishga yetadigan qudrat va salohiyat soladi qalbingizga.

Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir bo'lib ishlagan yillarda ham bu ko'hna zamindan uzilib ketmadi. "Samarqand ruhi"ni "sayqallash", qolaversa, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti doimo e'tiborida turdi.

Ana shu ezgu qarash va yondashuv Samarqandning ma'naviy hayotida tub bulirish yasadi. Shaharda Registon, Shohi Zinda, Amir Temur, Bibixonim, Xoja Doniyor, Ruhobod, Hazrati Xizr, Rasadxona, Dahbed, Nodir devonbegi, Xoja Ahror Valiy yodgorlik majmualari tarixiy qiyofasiga mos tarzda tiklandi.

Eng muhimi, bir vaqtlar qarovsizlik va noqonuniy qurilishlar tufayli mahallalar orasi, kimplarningdir uy-joyi ostida qolib ketgan muqaddas qadamjo – Imom Moturidiy hazratlarining qabri topilishi ma'naviy-madaniy hayotimizda ulkan voqelikka aylandi. Ulug' alomanning muborak nomi, benazir ilmiy-ma'rifiy merosi va buyuk ta'limoti yana xalq qalbiga yuksak ehtirom va izzat-ikrom bilan qaytarildi.

Men shu o'rinda bir haqiqatni ro'yi rost aytishni istardim: aslida hozirgi Samarqandning qayta

Men o'tgan yili Prezidentimizning O'zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvida u kishiga yuzlanib, shunday murojaat qilgan edim:“Bundan 6-7 asr ilgari bu yurtda ko'tarilgan muazzam bayroq o'z atrofida jahonni birlashtirgan, o'ziga qaratgan edi. Bu, shubhasiz, buyuk Sohobiqron bobomiz Amir Temur qurgan qudratli davlatning bayrog'i edi. Oradan qariyb yetti asr o'tib, uzoq yillar ko'zdan panada qolgan o'sha bayroq bugun yana hilpiray boshladi. Bu bayroq bugungi Yangi O'zbekistonning bayrog'idir.

Bugun jahon uzra mag'rur hilpirayotgan ushbu bayroqni Siz ko'tardingiz, muhtaram Shavkat Miromonovich!”

Men bugun ham ayni fikrimda sobitman.

shuhrat topishi va dunyo sahnida yana “Yer yuzining sayqali” degan sharafli nomga chin ma'noda munosib ko'rilishi aynan o'sha vaqtda boshlangan ma'naviy uyg'unishdan kuch-quvvat olgan, desam, sira yangilishmagan bo'laman.

Zero, Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati rahbari sifatidagi faoliyati davrida asos solingan ma'naviy uyg'unish keyinchalik butun mamlakat taqdiri va taraqqiyot yo'lini belgilab bergan ulkan strategik islohotlar uchun mustahkam asos bo'ldi. Muhimi, bu o'zgarishlar quruq shior yoki balandparvoz da'vatlar sifatida emas, balki xalqimiz tafakkuri va qarashlarini o'zgartirgan islohot sifatida ularning hayotiga chuqur kirib bordi.

Bugun xalqimiz qalbida jo bo'lgan milliy o'zlikni anglash va millat tarixi bilan bog'liq tushunchalar, ma'naviy qadriyatlarga nisbatan shakllangan yuksak hurmat va muqaddas qadamlar, bebaho tarixiy obidalarini bunyod etish hamda ularni asrab-avaylashga bo'lgan dadldorlik hissi zaminda o'sha yillarda yongan milliy g'urur va vatanparvarlik mash'alasining qudratli nurini ko'rish mumkin.



Maqola avvalida Samarqand garchi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, uning shonli o'tmishida o'z nomini qoldira olgan bunyodkorlar sanoqli degan edim. Agar siz bu o'tmish gavhari bo'lgan shaharga yaqin orada bormagan bo'lsangiz, endi boring, uning go'zalligidan zavqlaning, sahnidan nur yog'ilib turgan maydonlari, muazzam Imom Moturidiy, Imom Buxoriy qadamjolarini ziyorat qiling. Tarix va bugun uyg'unlashib ketgan "Boqiy Samarqand" ansamblini ko'ring. Bozorlar, mahallalar, ko'chalarni kezib, odamlarning yuz-u ko'ziga boqing. Chor atrofda taralib turgan qadim o'tmish va zamon ohanglariga quloq tuting...

Shunda anglaysizki, ruhiyatigizda paydo bo'lgan ilqlik, qalbingizga inayotgan shukuh qadim Samarqand ruhiyatidir. Ehtimol, o'sha dam yuragingizda shahar tarixida iz qoldirgan Vatan farzandlari nomini yana uzaytirishga ishtiyoq paydo bo'lar...

U kishi bugungacha bosib o'tgan yo'l odam qalbida shunday ezgu tuyg'ularni uyg'otadi. Zotan, bu yo'l sharaffi va shavkatli yo'ldir.

Bir paytlar Uinston Cherkhill o'z zamonasiga ishora qilib, "Biz ulkan voqeliklar va mayda odamlar davrida yashamoqdamiz", degan edi. Kinoya aralash aytilgan ayni malomat, oradan bir asrga yaqin vaqt o'tsa-da, bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagandek. Ayniqsa, noliash va ismsiz nafrat tobora milliy qadriyatga aylanib borayotgan bizning bugungi kunlarimizga ham taalluqli bu gaplar, desam, hech ham adashmagan bo'laman. Xususan, bu achchiq ta'na ko'z o'ngimizda bo'layotgan shuncha o'zgarishlar, yangilanishlarning qadriga yetmayotgan, ko'rib ko'rmaganga olayotgan "mayda odamlar"ga tegishli, albatta.

O'zbekiston bundan o'n yil burun qanday edi, hayotimiz, sharoitlarimiz, turish-turmushimiz, tafakkurimiz, biyron tilimizning holi nechog'li edi o'sha paytlarda?! Afuski, odam bolasi tez unutadi. Qadriga yetish, shukr qilish degan oddiy insoniy tuyg'ularni ham esdan chiqaradi. Ko'z o'ngimizda yuz berayotgan katta o'zgarishlarning farqiga bormaydi yoki bilib turib takabburlik qiladi.

Yaqinda yoshi saksonga borayotgan bir tanishim "Falonchi qamalagandi, o'g'li lavozimga o'tiribdi. Falonchi ishdan olingandi, uch oy o'tmay sal bundayroq bo'lsa ham, vazifaga qo'yilibdi. Men tushunmadim, nega bunday bo'lyapti?" deb so'rab qoldi.

Ochig'i, u kishidan xafa ham bo'lmadim, gapiga hayron ham qolmadim. Negaki, bitta u emas, aksariyatimizda shunday fikr bor: birov qamalmidi, urug'-aymog'i bilan "supurilishi" kerak, ishdan ketgan odam nafaqat siyosiy sahna, hatto jamoatchilik nazaridan uzoqda, ko'zga ko'rinmay yurishga mahkum...

To'g'ri, ilgari shunday edi. Bugun zamon ham, siyosat ham o'zgardi. Biroq taassufki, jamiyat buni to'g'ri anglab ololmayotir. Hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlar va ularga munosabatimizni kuzatib turib, ba'zan bir narsaga hayron qolaman: bizda ham faxr, Millat va Vatan zaferalaridan quvonib, g'ururlanish hissiyoti bormi yoki bu tuyg'ularimizni ham mustabidlik to'fonlariga "yerni" qilganimizmi? Shuncha ishlar, o'zgarishlar yangilanishlar bo'layotgan, ammo aksariyat hollarda ularga yondashuvimiz, hali aytgan tanishimnikidek, o'ta nosog'lom...

Mayli, targ'ibot, Prezident siyosati, bugungi kunlarimiz qadriqi odamlarga teng va bafurja sharhlash, tushuntirib berish amaliyoti, biroq bu ishlarimiz hozirda ko'ngildagidek kechmayotgani alohida munozara mavzusi. Ammo biz, tarixi ming yillarga teng xalq, o'tmishi afsonaga aylangan yurt farzandlari sifatida qalbimizda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishni o'rganishimiz bugun juda dolzarb, degan bo'lardim.



Navoiydan ulgi olib...

Boshlanishi 1-sahifada.

Besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” tadqiqoti bo‘lim tarixida yaratilgan eng katta ilmiy ish edi. Bu ulkan tadqiqotning maydonga kelishida Abduqodir Hayitmetov juda katta matonat va mahorat ko‘rsatgan. Tadqiqot eng qadimgi davrdan to 1917-yilgacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tarixini qamrab olgan. Ushbu murakkab qamrovda qomusiy asarda har bir davr va ijodkorning birortasi chetda qolmasligi, hammasiga joriy ilm nuqtayi nazaridan baho berilishi, adabiy merosining mazmun-mohiyati yoritilishi lozim edi. Ayni paytda, ularning ko‘pi hali ilmda yetarlicha o‘rganilmagan, merosi hatto matniiy jihatdan tadqiq etilmagan edi. Bu – ishini ancha murakkablashtirardi. Aksariyat hollarda birlamchi qo‘lyozma manbalar asosida ish yuritishga to‘g‘ri kelardi. Bunday uslubda ishlash uchun mutaxassis yetishmasdi. Binobarin, bu sermashaqqat ulkan tadqiqotni birgina O‘ZFA Til va adabiyot instituti intellektual salohiyati bilan amalga oshirish imkonsiz edi.

Tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ustoz butun respublika va hatto Ittifoq miqyosidagi ilmiy jamoatchilikni hamkorlikka chaqirgan. Ulardan, albatta, o‘z vaqtida va sifatli ilmiy mahsulot olish ham oson bo‘lmagan. Buning uchun Abduqodir Hayitmetov o‘z diplomatik va tashkilotchilik salohiyatini ishga solgan. Natijada, ellikdan ortiq yetuk olimlarning boshi qovushitilib, haligacha ilmiy qiymatini saqlab kelayotgan ulkan tadqiqot yuzaga kelgan.

Besh tomlikning 2-jildi Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Natijada, o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida birinchi marta 30 bosma taboqdan iborat navoiyshunoslik qomusiy tadqiqoti yaratilgan. Ushbu “O‘zbek adabiyoti tarixi” tadqiqoti mualliflari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldilar.

Ustoz “O‘zbek adabiyoti tarixi” nashr etilishining xursandchiligi va shukronasiga o‘z hovlisida rosmi to‘y qilib bergan. U qutlug‘ to‘yning shodiyonasi unutilmasdi. Institutning deyarli barcha erkak-ayol ilmiy xodimlari, biz yosh olimlar ham ustozning xonadonini to‘ldirganmiz. Boshqa biror olim jamoatchilik tadqiqotini nishonlash

Bo‘limimizda tugallangan rejali tadqiqotlar va dissertatsiyalarning muhokamalari juda qizg‘in o‘tardi. Ustozlar ilmiy tadqiqotlarni qilni qirg‘ yorgandek tahlil etishardi. Muhokama avjida, ayniqsa, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G‘aniyeva, Abdurashid Abdug‘afurov, Yoqubjon Is‘hoqov ishtirokidagi bahs-munozaralar “qiyo-mat-qoyim” bo‘lardi. Ba‘zan bahs-munozara haddan tashqari qizib ketib, jangovar tus olar, lekin maqsad bitta – ilmiy haqiqatni yuzaga chiqarish bo‘lardi. Muhokamadan keyin hech kim bir-biriga nisbatan gina-kudurat saqlamasdi. Fikriy qarama-qarshiliklar, ziddiyatli, hatto, kelishib bo‘lmas nuqtayi nazarlar muhokamada qolib ketardi. Muhokamadan keyin yana do‘stona munosabatlar, hazil-mutoyibalar bilan qizg‘in jamoaviy mehnatga kirishib ketilardi. Bu chinakam olimona madaniyatdan biz yosh olimlar o‘rnak olganmiz. Bu bizga dars, katta ilmiy maktab bo‘lgan.

Bunday bahs-munozaralar ustoz Abduqodir Hayitmetovning bag‘rikengligi va demokratik xarakteri mahsuli edi. Institutning 20-25 ta bo‘limda 300 dan ortiq ilmiy xodim, 30 dan ortiq yosh olim ishlardi. Ilgari laborant va katta laborant lavozimidagilar rejali katta tadqiqot hamda dissertatsiyalar muhokamasiga o‘z fikr-mulohazalari bilan qatnashish huquqiga ega emasdi. Birinchi bo‘lib Hayitmetov ustoz yosh olimlar ham muhokamalarda faol qatnashishiga ruxsat berdi. Zotan, dissertatsiyani qanday yozish va qanday yozmaslik kerakligini hech qaysi fan amalda o‘rgata olmaydi. Buning oliy maktabi dissertatsiya muhokamalaridir. Bunday muhokamalarda dissertatsiya ham, dissertant ham, o‘qib muhokamada fikr olgan yosh olimlar ham pishib yetiladi.

Institutda har yili 9-fevral kuni an’anaviy navoiyshunoslik ilmiy anjumani o‘tkazilardi. U davrlarda hozirgidek hamma oliy o‘quv yurtlarida va barcha ilmiy tadqiqot institutlarida Alisher Navoiy tavallud sanasiga bag‘ishlangan ilmiy-



ma’rifiy yig‘inlar o‘tkazish an’anasi shakllanmagan edi. Navoiyshunoslik kuchlari, asosan, Til va adabiyot institutida markazlashgan edi. Bo‘limda bu tadbirga astoydil tayyorgarlik ko‘rilardi. Akademiya olimlari bilan fikriy muxolifatdagi yirik olimlar ham bor edi, albatta. Abduqodir Hayitmetov ularga ham alohida e’tibor berar va maxsus taklifnomalar tayyorlatardi. Biz yoshlar u atogli olimlarga yozilgan taklifnomalarni manzillariga ancha oldin yetkazib berardik. Bundan ustozning maqsadlari taniqli olimlar markazlashgan ilmiy anjumanidan chetda qolmasligi, konferensiyada ham fikriy erkinlik va fikriy rang-baranglikni, munozaraviy muhitni shakllantirish bo‘lardi.

Konferensiya kuni institutda bayram ruhi hukmron, bo‘limimiz ilmiy bayramning qaynoq shaxobchasiga aylanardi. Tong sahardan poyezddan tushib, Samarqanddan akademik Vohid Abdullayev shogirdi Botirxon Valixojayev bilan kirib kelardi. Vohid domla eshikdan baralla g‘azal aytib, fayz bilan kirib kelar, kostyumining keng cho‘ntaklaridan xasaki yong‘oq chiqarib, siqimida sindirib, lufan bo‘limdagi mezbonlarga ulashardi. Tojikistondan Hayitmetovning to‘ng‘ich shogirdi professor Ergashali Shodiyev haybat va salobat, tabassum bilan kirib kelardi. Ozarbayjondan professor Jannat Nagiyeva, Rossiyadan professor Zoya Kedrina tashrif buyurardi. Konferensiya “osh”ini pishirgan Hayitmetov uni boshqarishga da’vogarlik qilmay, hay’atning bir chetida kamtarininga o‘tirar, anjumanga Navoiy qo‘mitasining raisi, akademik Vohid Zohidov raislik qilardi.

Anjumanga kelgan ma’ruzalar obdon saralanib, ilmiy yangiligi bor, eng yaxshi ma’ruzalarigina dasturga kiritilardi. Atogli jurnalist Mahmud Sa’diy barcha ma’ruzalarni diqqat bilan tinglab, eng

yaxshilarini tanlab, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etish uchun olib ketardi. Jami ma’ruzalar o‘nta atrofida bo‘lardi. Bu ham hozirgi ilmiy jamoatchilik uchun o‘rnak.

Abduqodir Hayitmetov boshchiligidagi bo‘limda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy to‘plamlar tayyorlanar, tavsiya etilgan maqolalarni ustoz zargarona tanlar va tahlil etardi. Shu bois, ilmiy to‘plamlar salmoqli va baquvvat chiqardi. Har biri bir ilmiy monografiya qudratiga ega bo‘lardi. Ular haqida matbuotda taqrizlar chop etilardi. Masalan, “Navoiy va ijod saboqlari” nomli to‘plam ana shunday ilmiy qiymatini yo‘qotmaydigan kitoblardandir.

Hozir kafedralarda o‘tkazilayotgan ilmiy anjumanlar materiallari asosida yostiqdagi ilmiy to‘plamlar chiqarilayapti. Bu ilmnning rivojidan deysizmi? 900-1000 betlab hajmda chop etilayotgan bu ilmiy to‘plamlarning savlatidan ot hurkadi. Lekin ichida barmoq bilan sanarli ilmiy maqolalar bor, xolos.

Darvoqe, keyingi paytlarda matbuotda ilmiy taqrizlar e’lon qilish taomili to‘xtadi. Bu borada ham Hayitmetovlar tutumi ibratidir. Taqriz ham o‘ziga xos janr, ayniqsa, ilmiy kitobga taqriz yozish oson emas. Buning uchun muallifda uzluksiz ilmiy jarayondan boxabarlik, ilmiy yangiliklarni idrok etish, tahlil va umumlashtirish qobiliyati bo‘lishi lozim. Abduqodir Hayitmetov bizni shu sohaga ham jalb etgan va tophiriq berib bo‘lsa ham, taqriz yozishga o‘rgatgan.

Professor Abduqodir Hayitmetov ilmiy tashkilotchiligining eng yuqori cho‘qqisi Alisher Navoiy ensiklopediyasining yaratilishi bo‘ldi.

1985-yildan qayta qurish va oshkoralik davri e’lon qilindi. Shu munosabat bilan jamiyatning hamma jabhalarida jonlanish paydo bo‘ldi. Tubdan yangilanish harakatlari kuchayib ketdi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga akademik Po‘lat Habibullayev prezident etib tayinlandi. Yangi rahbar akademiyaqarashli hamma ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatini talabchanlik bilan tekshirib chiqadigan bo‘ldi. Navbat Til va adabiyot institutiga yetib keldi. Prezident institutni aylanib, bo‘limlar faoliyatini o‘rganib chiqqach, jamoaning umumiy yig‘ilishi chaqirildi. Ustoz Hayitmetov doim yangidan yangi g‘oyalarga to‘lib yurardi. U umumiy yig‘ilishdan oldin bo‘lim majlisini chaqirib, 4-5 ta yirik ilmiy tadqiqot rejalarini muhokamadan o‘tkazib oldi. Ammo u akademiya rahbariga qaysi ilmiy tadqiqot loyihasini taqdim etishi sirilgicha qoldi. Ustoz vaziyatga qarab, mo‘ljallab turib, nishonga aniq urishni yaxshi ko‘rardi.

Abduqodir Hayitmetov akademiya prezidenti huzurida keyingi besh yilda bo‘lim ilmiy xodimlari kuchi bilan “Navoiy ensiklopediyasi”ni yaratish va uni 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga nashr etish rejasini ilmiy asoslab berdi. Reja tasdiqlandi.

“Navoiy ensiklopediyasi” loyihasi katta tavakkal bilan o‘rtaga tashlangan bo‘lsa ham, bunday yangi hamda ulkan tadqiqotga tabiiy zaruriyat va ehtiyoj bor edi. Chunki sobiq ittifoq miqyosida “Pushkin ensiklopediyasi”, “Lermontov ensiklopediyasi” tajribalari mavjud bo‘lsa ham, hali Markaziy Osiyoning birorta mamlakatida adabiy qomus yaratilmagan, “Navoiy ensiklopediyasi” bu mintaqada birinchi adabiy qomus bo‘lishi mo‘ljallangan edi. Qisqa muddatda “Navoiy entsiklopediyasi so‘zligi” tuzilib, nashr etildi. Besh yil mobaynida bo‘lim xodimlarining keng navoiyshunoslar jamoasi hamkorligida, ustoz Hayitmetov rahnamoligida “Navoiy ensiklopediyasi” matni maydonga keldi.

Professor Abduqodir Hayitmetov yuqoridagi singari jamoaviy ilmiy tadqiqotlar bilan birga, o‘nlab o‘z mustaqil ilmiy monografiyalarini yaratdi, Alisher Navoiy va boshqa o‘zbek mumtoz adiblari adabiy merosining nashri bilan shug‘ullandi, ko‘plab yosh tadqiqotchilarning dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qildiki, ularning bari hozir ilm-fan taraqqiyoti xizmatidadi.

Ustozning ham ilm, ham tashkilotchilik, ham insoniy fazilatlarini aynan Alisher Navoiy hazratlariga bemisl havas va muhabbat hosilasi edi. Ulug‘lardan ulgi olib, o‘zi ham ustozga aylangan domlamizning oxirati obod bo‘lsin!

Nusratullo JUMAXO‘JA,
filologiya fanlari doktori,
professor



“
Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur.
Bilki, bu naf‘ o‘zungga ko‘prakdurur.”

Alisher NAVOIY

MUTOLAA

Xabaringiz bor, yaqinda taniqli adib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi Abdusaid Mo‘chimovning “Yuksalish simfoniyasi” kitobi nashr etildi. Qisqa vaqt ichidayoq ushbu asar o‘zining mazmun-mundarijasi va dolzarb g‘oyalari bilan keng ommaga e’tiborini tortgani bejiz emas. Kitobni mutolaa qilib, undagi fikr-mulohazalarni tahlil etgan har bir insonga uning ahamiyati yanada teranroq anglashiladi.

Asarda mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan oqilona siyosat samarasi o‘laroq, keyingi o‘n yil mobaynida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar ta’sirchan va hayotiy lavhalar orqali aks ettirilgan. Yurtimizdagi taraqqiyot sur‘ati, xalqimiz ongi, tafakkuri, dunyoqarashida kechayotgan ma’naviy o‘zgarishlar haqqoniy va chuqur mushohada bilan tasvirlangan. Muallifning kuzatishlari va tahlillari orqali kitobxon go‘yo mamlakatning turli hududlarida bo‘lib, o‘sha yangilanishlarni bevosita ko‘rgandek taassurot oladi.

Eslatib o‘tamiz, mazkur maqolalar shu kunga qadar matbuot sahifalari va internet nashrlari orqali keng jamoatchilikka taqdim etib kelingan. Endi esa ularning yagona g‘oya va musharak ruh asosida, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ifoda etuvchi salmoqli kitob holida nashr qilinishi muhim tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

To‘plamga taniqli siyosatshunos va jamoat arbobi Quadratilla Rafiqov so‘zboshi bitgan. Unda qayd etilganidek, samimiy tuyg‘u va hayotiy haqiqatlar asosida yaratilgan ushbu kitobni faqat siyosiy yoki tarixiy voqealar bayoni sifatida baholab bo‘lmaydi. U, avvalo, o‘z kelajagini yangilash yo‘lida qat’iy qadam tashlagan xalqning ruhiy dunyosi,



ma’naviy qiyofasi va yuksalish jarayonlarini o‘zida mujassam etgan ta’sirchan badiiy solnomadir.

Kitob “Yer yuzining sayqali yoki maqolaga sig‘imagan Samarqand” nomli badiiy-publististik esse bilan boshlanadi. Muhim jihati shundaki, u shunchaki statistik raqamlar yoki rasmiy hisobotlar yig‘indisi emas, aksincha, shaxsiy xotiralar, xalqona hazillar, qiyoslar, maqollar, tarixiy ishoralar va lirik chekinishlar orqali Samarqandda kechayotgan ulkan o‘zgarishlarni tirik badiiy manzaraga aylantiradi. Masalan, ota bilan bog‘liq xotira maqolaning g‘oyaviy kaliti vazifasini bajaradi. “Qishlog‘imizga poyezd kelgan” degan hazilomuz lof dastlab kulgili tuyuladi. Ammo maqola oxiriga borib o‘quvchi katta taassurot uyg‘otadi. Muallif bu bilan millat orzu qilishdan to‘xtamasa, hatto afsona ham voqeilikka aylanishi mumkin, demoqchi bo‘ladi go‘yo. Ilgari eng chekka va yo‘l azobida qolgan hudud sifatida tasvirlangan Urgut bugun transport, sanoat va logistika markaziga aylanayotgani alohida ta’kidlangan.

YER YUZINING SAYQALI

Darvoqe, ro‘yi zamin sayqali bo‘lgan Samarqand azaldan turli tamaddunlar tutashgan tabarruk makondir. Shu bois maqolada tarix va zamonaviylik o‘zaro uyg‘un tarzda tasvirlanadi. Amir Temur, Afrosiyob, “Avesto”, Registon va Imom Buxoriy majmuasi haqidagi fikr-mulohazalar, shuningdek, zamonaviy aeroportlar, tunnellar, elektrobuslar hamda iqtisodiy zonalar haqidagi tadjiriy ma’lumotlar musharak manzara kasb etib, o‘quvchida katta taassurot uyg‘otadi.

Muallif yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha yirik loyihalarni mamlakatimiz rahbarining tashabbusi, siyosiy irodasi va xalqparvar siyosati bilan bog‘laydi. Ayniqsa, “Boqiy shahar”, “Shirin” massivi, Urgut erkin iqtisodiy zonasini, Samarqand aeroporti kabi obyektlar haqida gap ketganda, Prezidentimizni milliy uyg‘onish me’mori sifatida haqqoniy ta’riflaydi.

Kitobdan joy olgan “Avliyolar diyori, alplar yurti – Buxoroli” nomli publististik maqolani viloyatning ko‘p ming yillik tarixi, ma’naviy qudrati, milliy xotirasi va Yangi O‘zbekiston davridagi qayta uyg‘onish jarayonini o‘zida aks ettiradigan badiiy-falsafiy asar deyish mumkin. Unda “Tangri jamoli”, “Sharif shahar”, “Islom olamining nuri” deya ta’riflanadigan muqaddas shaharning Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Rudakiy, Narshaxiy, Ahmad Donish kabi allomalarga beshik bo‘lgani, ilm-fan, tasavvuf va madaniyat markazi sifatidagi maqomi otashin so‘zlar bilan ulug‘lanadi.

“Janub gavhari” maqolasi Surxondaryo viloyatida kechayotgan keng qamrovli yangilanishlar haqida hikoya qiladi. Muallif Termizni mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy

aloqalarga tobora faol qo‘shilayotgan, yangi imkoniyatlar eshigini ochayotgan strategik ahamiyatga ega hudud sifatida talqin etadi. Unda, ayniqsa, “Termiz xalqaro savdo markazi” kabi yirik infratuzilma loyihalari orqali mamlakatimizning tashqi iqtisodiy siyosatdagi amaliy, pragmatik yondashuvi va uning samarali natijalari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Viloyat hayotini keng qamrovli publististik ruhda yorituvchi ushbu maqolada jadal rivojlanishga oid tahlillar hamda tanqidiy mulohazalar uyg‘un holda keladi. Muallif Hayitboy ota obrazi orqali oddiy insonning jurnalistikaga bo‘lgan talabini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jurnalistlarga voqealarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishni tavsiya qiladi. Buning jonli misoli tariqasida o‘zi qadamba-qadam kezib chiqqan zamin, xususan, so‘nggi yillardagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aniq statistik ma’lumotlar orqali bayon etibgina qolmay, haqqoniy tanqidlarga o‘tadi ham. Xususan, ayrim hududlarda boshqaruv samaradorligining pastligi, imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotgani, korrupsiya kabi muammolar qalamga olinadi.

Maqola so‘ngida umumiy xulosa sifatida vatanparvarlik va ishonch ruhi ilgari suriladi hamda Hayitboy otaning telefon orqali bildirgan nekbin so‘zlari keltiriladi: “Surxondaryoni alplar yurti, alpomishlar vatani deymiz, bu juda to‘g‘ri. Lekin bugun Prezidentimiz nutqini eshitayotib yana bir marta amin bo‘ldimki, butun O‘zbekiston alplar Vatani ekan. Vatanimizning Shavkat Mirziyoyevdek jasur rahbari bor ekan, bundan ham obod, bundan ham boy bo‘ladi, Xudo xohlasa”.

Umuman olganda, “Yuksalish simfoniyasi” kitobidan o‘rin olgan “Bu




o‘lkada har narsa bordir”, “Sahro javohiri”, “Quyosh yurti Xorazm”, “Namangan – gullar vodiysi”, “Farg‘onaga kelgan turnalar”, “Qancha shoning bo‘lsa – Vatanni ko‘tar!” kabi maqolalar mazmun jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit publististik guldasta bo‘lgan, deyish mumkin. Ularda tahlil ham, talqin ham zargarona uslubda uyg‘unlashib, jadal islohotlarning jamiyat hayotidagi ta’siri aniq va izchil tarzda ifoda etilgan.

Muallif ta’kidlaganidek, “To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarda mamlakatimiz hududlarining bugungi o‘zgarishlari, taraqqiyoti kechagi kun bilan qiyoslangan holda bayon etilganki, bu o‘quvchini hozirgi shiddatkor o‘sinh, rivojlanish o‘z-o‘zidan bo‘lmayotgani, Davlat rahbarining hamisha bedorligi, xalq uchun, Vatan uchun beorom mehnat qilayotgani samarasi ekanini anglashga undaydi.”

Shahriyor SHAVKAT

SIYRAT



survratlari

Boshlanishi 1-sahifada.

Fotografiya o'zining tug'ilishidayoq tasviri san'at qonuniyatlari asosida yaratilganini fotograf esdan chiqarmasligi lozim. U o'zining ijodkorligini his etsa, suratga olayotgan lahza-dagi hayajonini tomoshabiniga yetkaza oladi.

Fotojurnalist, avval aytib o'tganimizdek, talab qilinadigan barcha mezonlar asosidagi yechimga lahzada ichida nuqta qo'yib, "chiq"ni amalga oshirar ekan, xuddi ana shu "chiq"da uning iqtidori, dunyoqarashi, bilimi, tajribasi, ma'naviyati, madaniyati, badiiy saviyasi aks etadi. Boshqacha aytganda, fotograf o'yab, kadrning ham texnik, ham badiiy yechimini hal qilayotgan lahza qanchalik hayajon, ehtiros sezsa, u olgan tasvir shunchalik ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ba'zan fotograf tasvirga ola turib, hali yuvib ochilmagan kadr negativida texnik jihatdan nima qanday aks etganini aniq bilib turadi. Bu, albatta, professional fotograflarga xos bo'lgan xususiyat.

XX asr boshiga kelib fotoplastinkalar, sezgir-ligi ancha yuqori bo'lgan ko'p kadrlari fotolentalar kashf qilinishi munosabati bilan dinamik harakat-dagi "stop-kadrlarni tutib qolish imkoniyati yaral-gach, fotoreportaj janriga asos solindi. Bu esa mavjud bo'lgan janrda ijod qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ijodiy fotografiya tasviri san'at bilan umumiy o'xshashliklarini saqlab qolgan holda, aynan fotografiyani ajratib turadigan xususiyatlarni ham kasb eta boshladi. Natijada fotografiyaning qo'llanish ko'lamini kengayib, uning yangi-yangi janr va yo'nalishlari paydo bo'ldi.

Bundan yigirma besh yillar avval raqamli fotokameralarning paydo bo'lishi munosabati bilan suratlashlikka qiziqadiganlar soni ko'paya boshladi. Boz ustiga, qo'l telefonlari ham "raqobatga" kirishdi. Bunday matohlar butunlay dasturlangani bois, kishidan hech qanday malaka talab qilmaydiganday ko'rinadi. Ko'p kuzatgansiz, fotograf suratni oladi-yu, darhol monitorga qaraydi. Avval kadr olinadi, keyin o'ylanadi. Xohlasa, bir sekundda o'nta kadr olishi mumkin, o'ylashga esa vaqt yo'q, intuitsiya, hissiyot zarurmas. Bora-bora barcha, hatto ijodkor shoir-u adiblar ham suratning mazmunli bo'lishiga emas, chiroyli chiqishiga o'rganib qoldi. Raqamli fotokameraning juda ko'p afzalliklari bor, albatta. Ammo ijodkor fotograflarning ko'pchiligi fototasma asosidagi kameralarda ishlashni ma'qul ko'radi. Kamina ham shular jumlasidan.

– **Raqamli fotokamera va fototasmali kamera o'rtasidagi farqni xuddi kitob va elektron kitob o'rtasidagi farqqa qiyoslagim keldi. Yo biz, yoshi kattaroq avlod vakillari o'z ko'nikmalarimizdan voz kecholmayapmizmi, zamonga moslasha olmayapmizmi? Bugun insonning insonligi uning qalbi, tuyg'ulari bilan emas, biz tushunmaydigan boshqa mezonlar bilan o'lganayotganmikan?**

– Men adabiyotni sevguvchi, ozmi-ko'pmi tushunguvchi insonga kitobning qog'ozi, muqovasi, bezagi, shrifti ham kayfiyat berishini, uni qo'lga olarkan, ochmasdan oldin hidlab ham huzurlanish mumkinligini qo'shimcha qilsam, albatta, qo'shilasiz, deb o'ylayman. Fototasmali va raqamli fotokamerani ham shunday qiyoslash mumkin. Suratga olish jarayonida texnik jihatdan farq yo'q, deb o'yllovchilar hozir ko'p topiladi. Hamma gap ana shunda. Ya'ni, hozirgi raqamli kamera bilan ishlaydigan zamonaviy suratlashlar fototasmada ishlagan va ishlayotganlarning har bir kadr uning bog'liq bo'lgan, faqat ungagina

zarur omillarini, ta'sir vositalarini xayoliga keltira olmaydi.

Obraz yaratishda fototasmaning bir qarashda yashirin, ammo juda muhim xususiyati borki, go'yo shoir matnni qog'ozga yozganidek gap. Bu materialning strukturaviy tuzilishi bilan bog'liq. Gap shundaki, fototasma rangli sezuvchan kimyoviy to'rt qavatdan tashkil topgan, fotoijodkorning eng nozik his va sezimlar orqali anglashiladigan badiiy obrazning ko'z ilg'amas unsurlari tufayli yarala-digan badiiyat ana shu qavatlarning mutanosib muvozanati natijasida ro'yobga chiqadi. Bilma-dim, ehtimol, buni hamma ham payqamas, lekin professional fotograf bundan voz kecholmaydi. Aslida, haqiqiy ijodkorlik ko'z ilg'amas va tushuntirib bo'lmaydigan jihatlari bilan sharhlanadi, shu jumladan, ijodiy fotografiya ham.

Raqamli fotokamera kelsak, bu yangi texnika va elektron texnologiyaning so'nggi so'zi, deb ta'riflash mumkin. Keyingi paytlarda uni mukam-mallashtirish jarayonida analog fotokamera sifatini bera oladigan darajaga yetkazishga intilishmoqda. Bunda texnik jihatdan eng sifatli fotosuratlar yaratish uchun resurs imkoniyatlari juda keng. O'zim shunday kameraga ega bo'lgan paytimda "Bunyodkorlik epopeyasi" loyihasi ustida olti yil ishlaganim ham bejiz emas. Shuning uchun ham uning afzal tomonidan unumli foydalanayot-gan hamkasblarimiz hech bir muammosiz ish-lashmoqda. Talab ham o'zgarib, odamlar texnik jihatdan mukammal, chiroyli fotosuratlar-ga o'rganib bormoqda. Shunga qaramay, klassik fotografiya klassikligicha asil bo'lib qolaveradi. Sizni xavotirga solayotgan qalb, tuyg'u muammolari ham zamon tezlighiga moslashsa kerak, deb o'ylayman.

O'zimning ijodiy ishlarimning sakson foizi negativ tasmlarda saqlanayotganidan ko'nglim-da qoniqish sezaman. Shu narsa umid baxsh etadiki, yuksak badiiylik uxlatayotgan har qanday qalbnii uyg'ota olish qudratiga ega bo'ladi. Adabiyot va san'atning mumtoz yaratig'laridan insoniyat o'zining ma'naviy ehtiyoji uchun ham voz kechmasa kerak.

– **Qaysidir ma'noda fotografiya ham odamzodning mumtoz yaratig'i bo'lmish tasviri san'atga soya solgan soha emasmi?**

– Fotografiyaning kashf etilishi bir necha asrlardan buyon rivojlanib kelayotgan dastgohli rangtasvir san'atining har jihatdan rivojlanishiga juda katta inqilobiy ta'sir ko'rsatdi. Parij fanlar akademiyasining kotibi Dominiku Fransua Aragoning qo'lga ilk fototasvirni berishganida, u ta'sirlanib, yangilikni tanikli rassom Pol Delaroshga ilinadi. Rassom surat olishning bu qadar aniq realistlik uslubi bilan tanishib, beixtiyor tutaqib ketadi va: "Bugundan rangtasvir o'ldi!" deya xitob qiladi. Lekin vaqti kelib, "Bu kashfiyot rassomlarga ko'p asqotadi", deya tan oladi. U haq bo'lib chiqdi, tez orada fotoapparat har jabhada, xususan, ilm-fanning deyarli barcha sohalarida qo'llana boshladi.

Ko'rinish turibdiki, fotografiya avval-boshdan san'at sifatida dunyoga kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yevropa rangtasvirida har xil avangard usullardagi "izm"lar – kubizm, ekspressionizm, syurrealizm, abstraksiya kabi realizmdan uzog'roq yo'nalishda izlanadigan ko'plab rassomlar paydo bo'ldi. Akademik maktab asosida yetarli mahoratga ega bo'lgan iqtidorli rassomlar yangilik yaratishga kirishdilar.

Gap shundaki, fotografiya kashf qilingunga qadar ko'plab rassomlar asosan sarmoyadorlar tomonidan beriladigan portret buyurtmalarini bajarib, tirikchilik qilganlar. Bundan tashqari,

akademik texnikaga asos solinib, realistlik uslubda uyg'onish davri boshlandi. O'sha asrning qirqinchi yillaridanoq ilk fotopavilonlar paydo bo'ldi. Badiiy didi yaxshi shakllangan fotograflar tomonidan olingan portretlar, albatta, rangtasvir asoslariga qurilgan. Foto-grafiya qiziqish va ishonch nihoyatda baland bo'lgach, rassomlarda ham undan iloji boricha uzog'lashish zarurati tug'ildi. Buning natijasida Eduar Mane, Van Gog, Salvador Dali, Pikasso, Mark Shagal (ro'yxatni davom ettiraverish mumkin) kabi uslub va texnikada mashhur rassomlar paydo bo'ldi.

Mana, fotografiya san'ati kashf etilishining ijobiy ta'siri! O'sha asrning ellig'inch yillarida-yoq ilm, fan, adabiyot, san'at, texnika sohasining deyarli barcha mashhur namoyandalari fotosuratlarini tayyorlangan va ular endilikda qimmatbaho tarixiy ashyolar sifatida qadr topgan. Buni "soya solish"ning olamshumul ijobiy ta'siri, deyish mumkin.

Shu o'rinda bir gapni aytib o'tsam. Hozirgi zamon rassomlarimizning aksariyati ko'pincha o'zlari oladigan portret, manzara va boshqa janr-dagi fotosuratlar asosida rangtasvir kompozitsiya-larni ishlaydilar. Ularning deyarli barchasida professional fotograflik malakasi yo'q. Shu tufayli xolstga o'girilgan ishlari ham ko'pincha "salonbop" bo'lib qolmoqda. Ajablanarlisi shundaki, ulardan ba'zilar mahoratli forassomlarni nazarga ilmaslikka harakat qiladilar-u, eng yaxshi ishlarni imi-jimida ko'chirib ham qo'yishadi.

– **Fotomuxbirning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida fikringiz?**

– Shu o'rinda o'zbek fotografiyasining birinchi namoyandasi, asoschisi, o'z zamonida misli ko'rilmagan jasorat ko'rsatgan, 1938-yilda Qodiriylar bilan bir kunda Yunusobodda otib tashlangan xorazmlik Xudoybergan Devonov, Toshkentda tug'ilib voyaga yetgan Georgiy Zelma, o'z ishini fidoyisi Ravil Albekov, tug'ma fotograf Sodiq Mahkamov nomlarini hurmat bilan esga olmasam bo'lmaz. Ularning ijodi va hayot yo'li fotomuxbirning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib turibdi.

Qo'lida fotokamera tutgan, biror gazeta yoki jurnalda faoliyat olib borayotgan xodimni ko'pincha fotojurnalist martabasi bilan siylashadi. Aslida, bu darajaga erishish hammaga nasib etavermaydi. Fotojurnalist – bu ijtimoiy faol shaxs. U keng dunyoqarashli, fuqarolik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, atrofda ro'y berayot-gan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildiradigan, o'z sohasining ustasi, ijodkorlik qobiliyatiga ega shaxs bo'lishi kerak. Aytish mumkinki, teran fikrlovchi, badiiy muhozadaga moyil, izlanuvchan kishidagina fotojurnalist martabasiga erishish salohiyati bo'ladi. Dunyoda tan olingan fotoreportyorlar orasida bu talabga javob beradiganlar ko'p. Bizning esa bu borada kamchiliklarimiz, hal qiladigan muammolarimiz bor. Fotografiya, fotojurnalistika mutaxassisligini egallashga intilayotgan bir qancha yoshlar bo'lsa-da, ammo universitetda berilayotgan fotojurnalistika saboqlari hali mukammal emas.

– **Bu muammolarni bartaraf etish uchun nima qilish kerak, deb o'ylaysiz?**

– O'zMU va O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakultetlarida mening mahorat maktabim tashkil etilgandi. Har ikkalasida ham bu fanni o'qitishga munosabat achinarli darajada bo'lgan. O'zJOKU ochilishi bilan holat nisbatan o'zgardi. U yerda birinchi bor mutaxassislikdan ta'lim berish uchun ma'lum darajada sharoitlar yaratildi. Resurslar ajratildi. Ammo o'quv dasturi barcha uchun umumiy. Mutaxassis tayyorlaydigan fakultet yoki bo'lim hali o'chilgani yo'q. To'laqonli ta'limga erishish uchun resurs va sharoitlarni bir necha barobar oshirish zarurati bor.

Matbuotda ishlayotgan fotomuxbirlar qaysi-dir tajribaga tayanib, o'z holicha o'rganib kel-moqdalar. Axir, professional fotojurnalistika fani juda katta nazariy bilimlar majmuasiga tayanadi. Ana shu nazariy bilimlardan bexabar qolayotgani uchun ham gazeta yoki jurnallarda bir umr ishlab kelayotgan suratlashlar orasidan fotojurnalist darajasiga yetganlari kam.

Men shu sohaga kirib kelgan chog'larda, sovet davrida "yetakchi" fotograflar milliy kadr-larning ro'yobga chiqishiga har tomondan monelik qilishardi. "Fotografiya o'zbeklarning ishi emas", degan gap yurardi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ularning ko'pchiligi tahririyatlarda o'z ishini nari-beri qila boshlagan yoki umuman tashlab qo'ygan. Esimda, shunday kunlarning birida Mayorov degan "mutaxassis" markaziy fotolaboratoriya-dagi menga: "Sizlar endi mustaqillikdan, endi aravalarini o'zlaring tortinglar", degandi. Bu menga qattiq tegdi, oriyatim kelib, qaysi jurnal tahririyati nimani so'rasa, bajarib berish uchun yelib-yugurib ishlay boshladim. Shuning uchun ham, 1992-yilning boshidayoq milliy kadrlar masalasini yuqori idoralarga olib chiqqanman. Shukrki, bularning hammasi endi tarixga aylandi. Bugun intiluvchan yoshlar safimizga qo'shilmoqda.

– **Fotojurnalist bo'lishni maqsad qilgan yoshlarga aytadigan gapingiz bormi?**

– Xalqning tarixini, dard-u armonlarini qalban his qila olgan kishigina haqiqiy fotojurnalist bo'lib yetisha oladi. Unutmang, olingan har bir surat shu lahza-dan boshlab tarixga, zamon ruhini o'zida ortmoqlagan qimmatli ma'naviy xazinaga aylanadi.

Oydin YO'LDOSHEVA suhbatlashdi.

TAVALLUD



SAHNADAN

TOPDIM FAROG'AT

O'zbekiston xalq artisti, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi, o'zbek musiqali teatrlarining zabardast vakillaridan biri Farog'at Rahmatova tavalludiga 100 yil to'ldi. San'atkor 1926-yil 25-mayda Qarshi shahridagi Qo'rg'oncha mahallasida tug'ilgan.

O'quvchi Farog'atdagi iste'dodni maktabdagi musiqa o'qituvchisi Bahrom Kamolov kashf qilib, unga "Yoshligim" qo'shig'ini o'rgatadi. Tez orada bu ijroning viloyatda dong'i ketadi va Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi Qarshi teatri yosh talantga talabgor bo'ladi. Maktab davridayoq ommaviy sahnalardan tashqari birinchi roli – "Yoritosh" spektaklida Oymomoni o'ynaydi. 15 yoshida Buxoro teatrida Sattor Yarashev bilan "Davron ota" spektaklida Muhabbat, "Farhod va Shirin"da Shirin rolini mahorat bilan ijro etadi.

1942-yilda Qashqadaryo viloyatida o'tgan yirik tadbirning madaniy dasturida yosh Farog'at ham o'z iste'dodini namoyish qiladi va o'sha paytdagi davlat rahbari Usmon Yusupov topshirig'i bilan faoliyatini Toshkent viloyatidagi "Yangiyo'l" teatrida davom ettiradi.

Farog'at Rahmatova 1947-yil-dan Toshkentdagi Muqimiy nomi-dagi teatrdan ish boshlaydi. Maz-kur teatr sahnasida yaratgan ilk obrazi "Alpomish" spektaklidagi Barchin bo'lib, keyincha "Tohir va Zuhra"dagi Zuhra roli san'atkorga chinakam shuhrat olib keladi. Shundan so'ng "Farhod va Shirin", "Nurxon", "Vatan ishq", "Oshiq G'arib", "Aziz va Sanam", "Farg'ona tong otguncha", "Rav-shan va Zulxumor", "Toshbolta oshiq" kabi ko'plab spektakllarda ijro etgan bosh rollari tomosha-binlar qalbidan joy oladi.

Farog'at Rahmatovanning na-faqat teatr sahnasida yaratgan rang-barang obrazlari, balki qo'shiqlar repertuari ham havas qilaridir. U xalq qo'shiqlari ijrosini To'xtasin Jalilovdan, maqom yo'llarini Yunus Raja-biydan o'rganadi. Lutfixonim Sarimsoqovani ustoz va onasi qatorida ko'radi. Har bir qo'shiq ustida Faxriddin Sodiqov, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, G'anjion Toshmatov, Komiljon Jabborov, Sulton Jabborov, Matniyoz Yusupov kabi kompozitorlar bilan erinmay ishlab, ijro me'yoriga

yetmaguncha ko'ngli tinchimagan san'atkor xalq orasida mashhur "Diyorimsan", "Onajon", "Kuygay", "Yordan salom kelibdi", "Yoring unutm", "Dugoh" kabi qo'shiq-larni haddi a'losiga yetkazgan.

Qahramonimizning san'at cho'qqilarini zabt etishida oila-viy muhitning ham o'rni be-qiyos. Suhbatlarimizdan birida Farog'at opa shunday degandi: "Yutuqlarimning asosiy sabab-chilaridan biri – qaynonam. U kishi juda yaxshi inson edilar. Agar qaynonam bo'lmaganlarida, har kuni sahnaga chiqish, konsertlarga borish, safarlarda yurish qayog'da, uch farzand bilan o'ralashib qolishim hech gap emasdi. Qaynonam onamday bo'lib, hamma yumushlarimda hamdam bo'ldilar".

Farog'at Rahmatova o'z umri va ijodining katta qismini Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatriga bag'ishladi. U professional aktyorlik faoliyatini davomida mudom bosh rollarni ijro etdi. Xalqimiz yuragidan chuqur joy olgan bu rollar afsa-naviy malikalar, o'z davrining ilg'or ayollari timsoli edi. Bu bejiz emas: Farog'at onaning tiyatida ham ayni zodagonlarga xos ichki madaniyat kuchli edi.

Farog'at Rahmatovanning bag'ri-kengligi, to'g'riso'zligi, san'at yo'lidagi jonkuyarligi bugungi san'at ahliga ibrat bo'lgulikdir.

Gulchehra UMAROVA



“Musika bashariyatning umumiy tilidir.

Genri LONGFELLO



YOZILMAGAN TARIX IZIDAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Bugungi kunda O'zbekistonda arxeologiya fanining ustuvor yo'nalishlari jahon arxeologiyasida bo'layotgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqadi. Jahonga integratsiyalashgan holda, yirik xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorligimiz bor. Shuning uchun ular qanday rivojlanayotgan bo'lsa, bizda ham jarayon shunday ketadi. Arxeologik izlanishlarda ular zamonaviy texnologiyadan foydalansa, biz ham foydalanishimiz kerak. Ular sun'iy intellektidan ilmiy tadqiqotda foydalansa, biz ham buni amaliyotga joriy qilamiz. Ular tabiiy fanlar usullaridan, metodlaridan, genetikaga o'xshagan



paleozoologiya, arxeozoologiya, arxeobotanika yoki arxeogeofizika degan yo'nalishlardan foydalanayotgan bo'lsa, biz ham ularga murojaat qilishimiz kerak.

Arxeolog qazishma orqali topilgan buyumlarni (aksariyati siniq parcha, fragment) tizimlashtirib, tasnif qilib, undan keyin yozilmagan tarixni tiklashga harakat qiladi. Arxeologiya – yozma manba bilan tiklanadigan tarixdan farqli bir yo'nalish. Hali yozuv paydo bo'lmasdan, rivojlanmasdan oldingi davrlar haqida ma'lumot beruvchi yolg'iz fan. Ya'ni, arxeologiya tarix yozilishidan oldingi davrlarni ham o'rganadi. Odamlar g'orlarda ko'chmanchi bo'lib, ovchi-termachi bo'lib yashagan davrlarda hali sivilizatsiya yo'q edi. Davlat, shahar, hatto qishloq degan tushuncha ham yo'q edi u davrlarda. Yozma manba yo'q. Ularning qanday yashaganini arxeologlar aniqlaydi.

– Albatta, ular ekinday o'sib chiqmaydi. Xuddi yer osti boyliklari kabi ularni qazib olish kerak. Xuddi igna bilan quduq qazganday...

– Ha, qazishma jarayonida aniqlanadigan hammasi. Manzilgohlar qidirib topiladi. Keyin u joyda nima qolgan bo'lsa, ulardan qadim hayot tarzi tiklanadi. Ehtimol, qadimgi davrda ishlatilgan narsalarning bir foizi qolgandir. Bizga shu ham kifoya qiladi.

Arxeolog xuddi o'tmish izquvariga o'xshaydi. O'zi yo'q, izi bor tarixni o'rganadi. Masalan, qadimgi davr odami o't yodqimi, hayvonlarni ovlab kelib, o'sha yerda pishirib, etini yeb, qoldig'ini tashlab ketdimi, o'sha o'choq tagini, o'tning kullarini topamiz. Kul ichidagi hayvonlarning suyaklarini, parchalarini topamiz. O'simliklarning kuyib qolgan, lekin shaklini o'zgartirmagan urug'larini, qoldiqlarini topamiz. Arxeobotanik

olimlarimiz uning qanday urug'ligini, qanday o'simlik ekanini aytib beradi, arxeozoolog olimlarimiz yovvoyi hayvonlarning qaysi turlari ekanini aniqlaydi. Odam suyaklari qolib ketgan joylar, qabristonlar yoki hali qabristonlar paydo bo'lmasdan, odamlar hali ko'mishni o'ylamagan davrlarda qolib ketgan suyaklar bor yer osti qatlamlarida. Shulardan u odamlar qanday qiyofaga ega edi, ust-boshi qanday edi, degan savollarga javob beradi bu fan.

O'zbekiston boshqa mintaqalarga solishtirilganda arxeologik meros jihatdan boyroq hudud. Shuning uchun bugungi kunda O'zbekistonda arxeologiya izlanishlari bir necha yirik

bo'lgani o'rganilyapti hozir. Odam suyaklaridan uning qanday xastalikdan vafot etgani, hayoti davomida qanday kasalliklarni boshidan kechirgani, qorni to'yib ovqatlanganmi yoki ocharchilikda yashaganmi, shulargacha aniqlanyapti. Buni arxeogenetika o'rganib beryapti. Bu imkoniyat 20-30 yil oldingi arxeologiyada yo'q edi.

Butun dunyo bo'yicha arxeologiya shunday yangi rivojlanish bosqichiga sakrab chiqdi. Bu fanning eng ustuvor yo'nalishi boshqa fanlar usullaridan foydalangan holda, tarixdan ko'proq ma'lumot olishdan iborat.

– Majvud savollarga javob topsila, yangilari chiqib kelaveradi. Bugun arxeologlar oldida qanday savollar javob kutib turibdi?

– Inson jamiyati qanday rivojlangan? Milliy qadriyatlar qayerdan kelib chiqqan? Nimaga bizning oshxonamiz biz bilgan ovqat turlaridan iborat? Xonaki o'simliklar, hayvonlar bizda qachondan buyon mavjud? Bizning uy qurish usullarimiz qayerdandir kirib kelganmi yo o'zimiz kashf qilganmizmi? Qayerdan keldi choponlarimiz, do'ppilarimiz, tillaqoshlarimiz? Bu savollarning javoblarini ham arxeologiya fani bera oladi.

Bugungi kunda arxeologiya fanining ustuvor yo'nalishlaridan yana biri boy arxeologik merosimizni keng targ'ib qilish bilan bog'liq. Bu – arxeologik yodgorliklarni to'raligicha qazib ochib, ustini yopib, turizm obyektiga aylantirish, degani. Faqat xalqimiz emas, chet eldan kelganlar ham ko'rsin, bizning madaniyatimiz qanday shakllangani bilan tanishsin, o'z yurtidagi arxeologik yodgorliklari bilan solishtirsin. Bizning xalqimiz ham boshqa joylarga borganda shunday obyektlarni ko'rib qiyoslasin, idrok qilsin. Bizning o'tmishimiz qanday edi? Ota-bobalarimiz merosiga qanday qarashimiz kerak? Shularni bilsin, faxrlansin.

– Ajdodlarimiz ma'lum bir hududga joylashishda nimalarga e'tibor bergan?

– Arxeologiyada qadimgi davrlarda yashagan odamlarning izlari va qoldiqlarini, yashagan makon va qo'nalg'alarini topish bo'yicha o'ziga xos ilmiy uslublar bor. Insonning o'troqlashuv xususiyatlari ilmiy tilda o'rnatilgan ekologiyasi deyiladi. O'rnatilgan ekologiyasini o'rganish bo'lsangiz, arxeologik yodgorliklarni topishingiz oson bo'ladi. Masalan, tabiatga chiqdingiz, deylik. Birinchi o'rinda insonga eng kerakli narsa – suv. Buloq, soy yoki daryo qidirasiz. Daryodan uzoqlashmaysiz. Ikkinchisi, tekis joy qidirasiz uy qurish uchun. Uchinchisi, u yerda odamlar o'z iqtisodiyotini yuritishi kerak. Yo dehqon bo'ladi, yo chorvador. Arpa-bug'doy ekadigan aholi bo'lsa, ular yashagan joyda unumdor tuproqlar bo'lishi kerak. Chorvador bo'lsa, yaylov qidiradi.

Mana shu mezonlar bo'yicha qidirsangiz, qadimgi odamlarning izlarini topasiz. Asta-sekin butun hududlar o'rganib chiqilib, hammasining xaritasi tuziladi.

– So'nggi paytda qanday arxeologik yangiliklar kuzatilmog'da?

– Ko'p yillardan beri AQSHning Vashington universiteti bilan hamkorlikda ishlaymiz. AQSHlik professor o'qituvchilar va talabalar har yili yozda bir oyga kelib-ketishadi. Birgalikda O'zbekistonning tog'li hududlarida arxeologik yodgorliklarni qidiramiz va o'rganamiz. Ularda texnologiya rivojlan-

gan, o'zlarining yangi uskunalari olib kelishadi. So'nggi olib kelgan uskunalardan biri "Lidar" degan skaner dronga o'rnatiladi va yoza boshlaydi. Bu qurilma katta ko'lamdagi ishlarni tez bajarishga yordam beradi.

Zomin va Baxmal tumanlari hududida Tug'unbuluq degan joy bor. Shu yerda 150 gektarlik shahar qoldig'i borligini ham ayni shu dron orqali aniqladik. 2000 metr yuqorida joylashgan hudud. Oldin tog'li joylarda kichik-kichik uyachalar, turar joylar topilardi. Lekin u yerda qishloq yoki shahar darajasiga ko'tarilish degan narsa fanda yo'q edi. Qarang, bu joy Qoraxoniylar davrida shahar darajasiga ko'tarilgan ekan. 250 yil davomida yashab, keyin tark etilgan ekan. Hozir ham bunday hududda shahar qurish oson emas. Ajdodlarimizni nima majbur qilgan bunda makon qurib, keyin tashlab ketishga? Besh yildan buyon har yili qazishma orqali o'rganyapmiz. Sabablarini topish arafasidamiz.

Birinchisi, u yerdagi tog' geologik jihatdan temirga boy ekan. Ikkinchisi, u yer yaylov bo'lgan. Bu joy qandaydir siyosiy, iqtisodiy markaz bo'lishi kerak. Turkiy qavmlarning xoqoni yashagan bo'lishi mumkin. Har ikki yilda bir marta bo'lib o'tadigan Shanxay arxeologlar forumi bor. Shu forumda O'zbekistonda Jizzax, Zomin va Baxmal tog'larida olib borilgan tadqiqotlar jahonning 10 ta eng yirik kashfiyotlaridan biri, deb e'lon qilindi. Bizga sertifikatlar berildi. Bu O'zbekiston olimlarining amerikalik olimlar bilan hamkorlikdagi yutuqi bo'ldi.

Bundan tashqari, Toshkent atrofidagi G'arbiy Tangritog' hududida, Qashqadaryo va Surxondaryo hududidagi Hisor tog' etaklarida arxeologlarimiz neandertal odamlarning g'orlarini topishdi. Varshava universiteti arxeologlari bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotimiz uchun Yevropa 2 million yevrolik grant ajratdi.

So'nggi yillardagi yirik kashfiyotlardan yana biri – Kofirqal'a degan yodgorlik Samarqand arxeologiya instituti tomonidan o'rganilyapti. Bu – qadimgi So'g'd sivilizatsiyasiga oid markaz. Samarqanddan 25-30 km uzoqlikda joylashgan. Samarqandlik mutaxassislar Yaponiya, Italiya arxeologlari bilan hamkorlikda yodgorlikni o'rganish jarayonida qiziqarli ma'lumotlar topyapti. Mana, qadimgi zardushtiyarga oid ibodatxonaga o'xshash xona arablar bosqinida Islom diniga zid, deb yoqib yuborilgan. Yonib ketgan yog'ochlarda o'ymakorlik izlari bor. Chunki kul chirimaydi, ko'mir chirimaydi. Yog'och bo'lganda, bugungi kungacha qolmas edi. Manbada Nana tasviri chizilgan – bu zardushtiylik dinida ayollik, unumdorlik tangrichasi hisoblanadi. O'ta noyob.

Tasvir qayta chizib chiqilganda, 1300 yil oldingi So'g'd madaniyati davriga oid kiyimlar, erkak va ayollarning soch turmaklari, hammasi ko'rinib turibdi. Kiyimlarning ustidagi bezaklargacha ayon ko'rinadi. Ko'p muhim elementlar bor u yerda. Bu ma'lumotlar hech qanaqa yozma manbada yo'q, bu tarix uchun kutilmagan juda katta ma'lumot. Topilma jahon ko'lamida arxeologlar o'rtasida shunday bir rezonans uyg'otildi, O'zbekiston madaniyati ko'rgazmasining asosiy eksponatlaridan biriga aylandi.

– Domla, mazmunli suhbatiz uchun rahmat. Milliy arxeologiya fanimizda shunday yutuqlar bardavom bo'lishiga tilakdoshmiz.

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



OQSILLAR DUNYOSINING UCH QAHRAMONI

2024-yilgi kimyo bo'yicha Nobel mukofoti oqsillar yo'nalishidagi kashfiyotlar uchun taqdim etildi. Sovrin miqdori 11 million shved kronasi (1 115 000 AQSH dollari) bo'lib, yarmi Devid Beykerga, yarmi esa Demis Hassabis va Jon Jamperga berildi.

MOHIYAT

Hayotning xilma-xilligi oqsillarning kimyoviy vosita sifatidagi ajoyib qobiliyatiga bog'liq. Ular tiriklikning asosi bo'lgan barcha kimyoviy reaksiyalarni boshqaradi. Oqsillar, shuningdek, gormonlar, signal beruvchi moddalar, antitanalar hamda turli to'qimalarning qurilish bloklari vazifasini bajaradi.

"E'tirof etilayotgan kashfiyotlardan biri mutlaqo yangi, g'aroyib oqsillarni yaratish bilan bog'liq. Ikkinchisi esa, fandagi 50 yillik orzuni ro'yobga chiqardi: endilikda oqsil tuzilmalarini ularning aminokislotalar ketma-ketligi orqali oldindan bashorat qilish mumkin. Bu ikkala kashfiyot ham insoniyat uchun ulkan imkoniyatlarni ochib berdi", deydi Kimyo bo'yicha Nobel qo'mitasi raisi Xayner Linke.

IZOH

Oqsillar odatda 20 xil aminokislotalardan iborat bo'lib, ularni hayotning qurilish bloklari deb ta'riflash mumkin. 2003-yilda Devid Beyker ushbu bloklardan foydalanib, tabiatda hech qachon uchramaydigan yangi oqsil yaratishga muvaffaq bo'ldi. O'shandan beri uning tadqiqot guruhi farmasevtika, vaksinalar, nanomateriallar va mikrosensorlar sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan sun'iy oqsillarni loyihalab kelmoqda.

Ikkinchi kashfiyot esa, oqsil tuzilmalarini modellashtirish bilan bog'liq. Oqsillarda aminokislotalar uzun zanjir shaklida bir-biriga bog'langan bo'lib, ular uch o'chovli murakkab struktura hosil qilish uchun buklanadi. Bu shakl oqsilning qanday funktsiya bajarishini belgilab beradi. 1970-yillardan beri tadqiqotchilar ushbu zanjirning buklanish shaklini oldindan topishga harakat qilishgan, ammo bu juda murakkab jumboq edi. Biroq yaqin yillar ichida sun'iy intellekt texnologiyasi yordamida bu borada ulkan ilmiy yutuqqa erishildi.

YANGILIK

2020-yilda Demis Hassabis va Jon Jamper "AlphaFold2" deb nomlangan sun'iy intellekt modelini taqdim etishdi. Ushbu texnologiya yordamida ular 200 milliondan ortiq oqsilning uch o'chamli tuzilishini bashorat qilishga muvaffaq bo'lishdi. Kashfiyot e'lon qilingandan buyon dasturdan 190 mamlakatdan ikki milliondan ortiq inson foydalandi. Ushbu tizim yordamida olimlar tibbiyotdagi antibiotiklarga chidamlilik muammosini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lishdi, qolaversa, ekologiya uchun juda muhim bo'lgan plastmassa chiqindilarini parchalaydigan yangi fermentlarni loyihalash ustida ishlashmoqda.

QAHRAMONLAR HAQIDA

Devid Beyker 1962-yilda AQSHning Sietl shahrida tug'ilgan. 1989-yilda Kaliforniya universitetida doktorlik darajasini olgan. Hozirda Vashington universiteti professori hamda Govard Xyuz tibbiyot instituti tadqiqotchisi.

Demis Hassabis 1976-yilda London shahrida tug'ilgan. 2009-yilda doktorlik darajasini olgan. Bugungi kunda sun'iy intellekt olamidagi eng nufuzli tashkilotlardan biri bo'lgan "Google DeepMind" kompaniyasining bosh direktori.

Jon Jamper 1985-yilda AQSHda tug'ilgan. 2017-yilda Chikago universitetida doktorlik darajasini olgan. Hozirda "Google DeepMind" kompaniyasining katta ilmiy xodimi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

JAHON AYVONIDA

EBOLA VA MUNDIAL

AQSH fashistlari Kongo Demokratik Respublikasi futbol terma jamoasining 2026 yilgi Jahon chempionatida ishtirok etishi uchun mamlakatga kirishga ruxsat berilishini ma'lum qildi. Bu haqda Davlat departamentiga tayanib "Al Jazeera" xabar berdi.



AQSHda Ebola epidemiyasi xavfi sababli so'nggi 21 kun davomida Kongo DR, Uganda hamda Janubiy Sudan fuqarolarining mamlakatga kirishi taqiqlangan. Biroq,

KDR terma jamoasi ushbu qoidadan istisno qilinadi.

Ma'lumot uchun, yaqin kunlardagi holatga ko'ra, KDRda 513 dan ortiq odam Ebola virusidan kasallangan. 131 kishi esa vafot etgan.

Eslatib o'tamiz, Kongo DR AQSH, Meksika va Kanada maydonlarida bo'lib o'tadigan Jahon chempionatida "K" guruhidan joy olgan bo'lib, O'zbekiston, Kolumbiya hamda Portugaliyaga qarshi maydonga tushadi.

QIROL O'LMAGAN

Britaniyaning Radio Caroline radiostantsiyasi adashib qirol Charlz III vafot etganini e'lon qildi



va bu xatolik uchun uzr so'radi. Bu haqda "The Guardian" xabar berdi.

Britaniya monarxi vafot etgan taqdirda radiostantsiyalar "Monarx" deb nomlangan maxsus protokolni ishga tushiradi. Qirollik oilalari o'z dafn marosimlarini oldindan rejalashtirgani kabi, muxbirlar ham bunga shay turadi. 19-may kuni ushbu protokol tasodifan ishga tushib ketgan.

UCHAR TAKSI SINOVI



Qozog'istonning Olmaota viloyatida ilk bor "eVTOL" uchur taksi sinovdan o'tkazildi. Bu haqda viloyat hokimi Marat Sultonogaziyev ma'lum qildi.

Bunday sinov butun Markaziy Osiyo hudu-

didagi birinchi tajriba hisoblanadi. Elektr energiyasida ishlaydigan aerotaksi tirbandlikni kamaytirish, sayyohlik ob'ektlarini bog'lash va sayohat vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

OQ UY BUNKERI



AQSH prezidenti Donald Tramp Oq uyda qurilayotgan yangi bunker tantanalar zali haqida shu paytgacha ma'lum bo'lmagan tafsilotlarni oshkor qildi. Uning aytishicha, olti qavatli yeroosti majmuasining tom qismida dronlar bazasi, ichida esa harbiy gospital joylashadi.

Trump qurilish maydonidagi shovqin-suron ostida bir guruh jurnalistlar uchun ekskursiya

tashkil etdi. Prezident bu orqali AQSH Kongressini bino xavfsizligini kuchaytirish uchun 1 milliard dollar mablag' ajratishga ko'ndirmoqchi.

YASHIRIN HARBIY TAYYORLOV

Xitoy 2025-yil oxirida yashirin ravishda qariyb 200 nafar rossiyalik harbiyni o'z hududida tayyorlagan. Ularning ayrimlari jeyinchalik Ukrainadagi jangovar harakatlarga qaytgan. Bu haqda "Reuters" xabar berdi.



Rossiya–Xitoy o'rtasidagi ikki tilli kelishuv hujjatida aytilishicha, 2025-yil 2-iyul Pekinda imzolangan bitimga muvofiq, rossiyalik harbiylar Pekin va Nankin shaharlaridagi harbiy bazalarda tayyorgarlikdan o'tgan.



NUQTA



Boshlanishi 1-sahifada.

Mahmudbek Qoziyev 1890-yili Andijon shahrining Devonaboy mavzesida tug'ilgan. Otasi Otabek qozi Andijondagi usuli jadid maktablari homiylik qilgan, mahalliy ziyolilar orasida yuksak



obro' qozongan shaxslardan edi. "Turkiston viloyati gazetasi"ning o'sha yillardagi sonlaridan birida uning Azim Qodirov maktabidagi imtihonda qatnashgani haqida xabarni o'qiydiz. Ayni ma'lumotdan oilaning jadid muhitiga yaqinligini ham anglaymiz.

Otabek qozi 1902-yili vafot etadi. Undan Ahmadbek, Fozilbek, Mahmudbek va Hizrbek ismli farzandlar qolib, barchasi zamonasining ziyoli kishilari sifatida taniladi. Xususan, to'ng'ichi Ahmadbek 1922-yilgacha Andijonda qozilik qiladi. Fozilbek tarixchi-adib bo'lib yetishadi. Uning 1926-yili chop etilgan "Dukchi eshon voqeasi" kitobi chor mustamlakachiligi davridagi Turkiston hayoti, xalqning og'ir turmushi va o'sha davr ijtimoiy muhitini yoritgan eng muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Fozilbek Otabek o'g'li yozadi: "Shahar xalqi zolim hokimlar zulmidan bezor bo'lib ko'chaga chiqolmay qolgandek, tog'lardagi qirg'izlar ham ot, mol, qo'y, echkilarini bemalol boqolmay, bir tarafdin cho'p, og'iz puli deb jarima solib, pullarini olsa, ikkinchi tarafdin "tuyog puli" deb qo'yalarini tortib oldi. Uchinchi yoqdan rus mujliklari "ekinimga kirdi" deb mollarini "shtraf" qilib olib qo'yardi".

Darhaqiqat, mustamlaka cho-

higa tushgan Turkistonda chor amaldorlarining zulmu tazyiqi yil sayin kuchayib borardi. Mahalliy aholini ezib-siqdash, qadr-qimmatini oyoqosti qilish, hatto ko'chadan mirshab o'tib qolsa, o'rnidan turmagan musulmonni kaltaklash yoki qamash ham oddiy holga aylangandi. Ana shunday tahlikali davr Qoziyevlar avlodining qarashlari va hayot yo'lida ham chuqur iz qoldirdi.

Biz hikoya qilmoqchi Mahmudbek 1916-yili o'qishni bitirgach, Andijon shahridagi Jome masjidida mutavallilik, ya'ni xo'jalik mudiri va mirzalik qiladi. Bu yillar Turkistonda jadidlik harakati keng yoyilayotgan palla edi. Millat taqdiridan qayg'urgan ziyolilar yangi tashkilotlar tuzib, xalqni ma'nan uyg'otishga intildilar. 1917-yilgi fevral va oktyabr voqealaridan keyin Turkistonda hokimiyat uchun kurash avj olgan, yurt kelajagi xususida turli qarashlar maydonga chiqqan bir sharoitda Mahmudbek Qoziyev ham Andijondagi "Sho'royi islom" faollari qatorida ko'rina boshladi. 1937-yil 21-avgustdagi tergov jarayonida bergan ko'rsatmasida u "Sho'royi islom"ning Andijon bo'limi ishida faol qatnashgani, ukasi Hizrbek bilan birga Qo'qon muxtoriyati uchun mablag' yig'ish va uni yetkazish ishlarida ishtirok etganini ta'kidlaydi.

Turkiston muxtoriyati milliy davlatchilikni tiklashga dastlabki jiddiy urinishlardan biri edi. Muxtoriyat hukumati "Milliy askar" ("Milliy gvardiya") tuzishga kirishganida, Andijon uyezdi aholisidan yig'ilgan mablag'larni Qo'qonga olib borib topshirish Mahmudbek zimmasiga yuklanadi. Bu esa uning milliy harakat ichidagi ishonchli kishilardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Muxtoriyat bolsheviklar tomonidan tor-mor etilgach, Andijondagi "Sho'royi islom" faollari "Mahkamayi shariat" tashkilotini tuzib, Mahmudbek Qoziyev ushbu tashkilotda kotiblik vazifasini bajaradi. Keyinchalik aynan shu faoliyati uning ustidan qo'zg'atilgan jinoyi ishlar uchun asosiy dalillardan biri bo'ladi.

1918–1921-yillarda u Andijon uyezd revolyutsion komiteti qoshidagi advokatlar kollegiyasida a'zo, ayni paytda Koshg'ar saroyida kotiblik ham qilardi. Ammo sovet hokimiyati milliy kuchlarga nisba-

tan tobora qattiq siyosat yurita boshlagan sharoitda u ham ta'qib doirasiga tushdi. Turkistonda milliy ozodlik harakati kuchayib, Farg'ona vodiysida vaziyat nihoyatda qaltis tus olgandi. Koshg'ar saroyiga qilingan hujumdan bir kun o'tar-o'tmas, maxsus bo'lim xodimlari saroy bilan aloqador deb sanagan kishilarni birin-ketin hibsga ola boshlaydi. Ular orasida oqsoqol Ibrohim Oxun bilan birgalikda qahramonimiz ham bor edi.

Qoziyev dastlab 27 kun qamoqda saqlanadi. Ozod etilgach, yana Andijon inqilobiy komitetida kotib-tilmochlik ishlariga qaytadi. Shunga qaramay, maxsus bo'lim changalidan qutulib bo'lmaydi. Oradan yarim yilcha o'tib, tag'in hibsga olinadi: avval Toshkentga, so'ng Moskvaga etap qilinadi. Keyinchalik tergov materiallarida ushbu voqealar "bosmachilar bilan aloqa" sifatida talqin qilina boshlaydi. Xususan, 1937-yil 17-martda mahbuslardan birining ko'rsatmasida Mahmudbek Qoziyev 1918-yili Koshg'ar saroyida Ibrohim Oxun oqsoqolga kotib bo'lib ishlagani, Ibrohim Oxun esa Parpi qo'rboshi bilan yaqin aloqada bo'lgani qayd etiladi. Tergov talqiniga ko'ra, Mahmudbek Qoziyev shu orqali "bosmachilar" bilan bog'langan, hatto Ibrohim Oxun nomidan Parpi qo'rboshiga yo'llangan maktub maxsus bo'lim qo'lga tushib qolgan emish. Bu ish ortidan Ibrohim Oxun Butunrossiya Favqulodda Komissiyasi (VCHK) kollegiyasi tomonidan otilgani, Mahmudbek esa 10 yil qamoq jazosiga hukm etilib, uzoq shimolga – Arxangelskga surgun etilgani aytiladi. Mahmudbek Qoziyevning o'zi 1937-yil sentyabridagi ko'rsatmasida: "1921-yil aprelda soqchi kuzatuvda Toshkentga maxsus bo'limga olib borishdi. Bu yerda bir oyga yaqin qamoqda ushlab turishdi. Bu joydan soqchi kuzatuvda Moskvaga yuborishdi. Yo'lda terlama kasali bilan og'rib qoldim", deydi.

Arxangelsk surguni Mahmudbek Qoziyev hayotidagi eng mashaqqatli va iztirobli davrlardan biriga aylanadi. Uzoq shimolning sovuq va begona muhiti, mahbuslik hayoti uni holdan toydiradi. Shunday bo'lsa-da, oilasi va yaqinlarining sa'y-harakati tufayli Mahmudbek Qoziyev 1923-yili jazo muddati tugamasdan ozodlikka chiqadi va Andijonga qaytadi.

Surgundan qaytgach, uzoq ishsiz qolmaydi. Jadid ziyolilaridan Yoqubjon Isaqulov (1931-yili otilgan) ko'magi bilan Farg'ona vodiysi bo'yicha paxta komiteti tizimida ish boshlaydi. Keyin Andijon kommunal xo'ja-

ligida kotiblik qiladi, sanoat kooperatsiyasida rais o'rinbosari va savdo bo'limi mudiri vazifalarida ishlaydi. 1926-yildan Paxta tresti tuman idorasida kotib, so'ng 4-son bunday suhbatlar "sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot" aybini qo'yishga kifoya qilardi. 1929–1931-yillarda Andijon okrugi paxta soyuvida kotiblik qiladi. Shuningdek, tumanlararo kooptrans mudiri (1931–1933), "Aravakash" arteli raisi (1933–1934), baza boshlig'i (1934–1936) vazifalarida faoliyat yuritadi.

1937-yil tergovlarida uning butun o'tmishini qayta titkilash boshlandi. Ilgari jadidlar bilan birga ishlagani, Qo'qon muxtoriyati uchun mablag' yig'gani bormi, Yoqubjon Isaqulov yoki Inomjon Xidiraliyev kabi shaxslar bilan munosabati bo'ladimi, "aksil-inqilobiy aloqalar" sifatida talqin qilinadi. Bir vaqtlar millatning ma'rifatli qatlami hisoblangan ziyolilar orasidagi zig'ircha isoniy munosabatlar ham NKVD nazdida "jinoyat"ga aylantiriladi. Shu yili 20-avgustda davlat xavfsizligi serjantlari Polunin va Chalyi Mahmudbek Qoziyevni qamoqqa olish haqida qaror tayyorlaydi. Hujjatda u "aksilinqilobiy unsurlar yig'inining faol ishtirokchisi", "sovet hokimiyatini ag'darishga chaqiruvchi shaxs" sifatida tavsiflanadi.

Tergov jarayonlari chuqurlashgan sari NKVD xodimlari Mahmudbek Qoziyev atrofidagi har qanday suhbat va munosabatga siyosiy tus beradi. Ayblov xulosasiga ilova qilingan guvohlar, jumladan, D.Xushvaqto'vning 1937-yil 9-noyabrda bergan ko'rsatmasi ham ana shu maqsadga xizmat qilgan. Unda Hasanxon Niyo'zov bilan Mahmudbek Qoziyev o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan parcha keltiriladi.

Ko'rsatmaga qaraganda, Hasanxon Niyo'zov sovet siyosati haqida keskin fikr bildirib: *"Men Sovet ittifoqida yuz berayotgan ishlardan nihoyatda taajjubdaman. Hamma ish aholini aldash bilan olib borilmoqda. Ko'rib turibsiz-ku, quloq qilish niqobida urush uchun Toshkentga qanchadan qancha otlar jo'natilmoqda. Men hukumat siyosati qandayligini juda ham yaxshi tushunaman, men bilgan narsalarni hattoki amal stolida o'tirgan ko'plab xizmatchilar ham tushunmaydi"*, deydi. Mahmudbek Qoziyev esa bu gaplarni tasdiqlab: *"To'g'ri, men ham sizning fikringizga qo'shilaman, hukumat siyosatini siz-u bizchalik tushunadiganlar kam, Andijon aholisi haqiqiy ahvolni tushunib yetmayapti, ular xursand, bayramona kayfiyatda"*, deb, so'ng zaharxandalik bilan: *"Biz ham*



Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

xursandmiz, quvonchlimiz, ashula aytamiz, bizda hamma narsa, davlatimiz ham yaxshi", deya kesatq qiladi. Tergov uchun bunday suhbatlar "sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot" aybini qo'yishga kifoya qilardi.

1937-yil 5-noyabr. Davlat xavfsizligi katta leytenant Berg 28 nafar ayblanuvchi qatorida Mahmudbek Qoziyev ishini ham "uchlik" sudiga topshiradi. "Millatchi yig'inlarda qatnashish", "urush haqida provokatsion mish-mish tarqatish", "sovet siyosatiga tuhmat qilish" kabi bandlar bilan u 1937-yil 13-noyabrda oliy jazo – otuvga hukm qilinadi. Hukm 23-dekabr kuni iro etiladi.

Fozilbek Qoziyev ustidan ham jinoyi ish qo'zg'atilib, uni Toshkentning Qovunchi mehnat posyolkasiga surgun qilishadi. U ko'p o'tmay o'sha joyda qiy-noqlardan vafot etadi.

Bu har ikki qatag'on qurbonlarining avlodlari hozirda Andijonda, Toshkentda yashashmoqda. Mahmudbek akaning katta o'g'li Rashodbek 1935–1938-yillari Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat universitetining biologiya fakultetida o'qib yurgan paytida oilasi boshiga tushgan musibat oqibatida universitetni tark etadi. Andijon kechki pedagogika institutida o'qib, 1940-yilda bitiradi. Bu inson bilan 1966–1974-yillari hozirgi Andijon davlat universitetida birga ishlaganman, ko'p suhbatlar qurganmiz, ajoyib, dilbar shaxs edi. Alamlisi, Mahmudbek Qoziyevning farzandlari uzoq yillar otasi taqdiridan bexabar yashadi. Rashodbek Qoziyev 1964-yilda yozgan tarjimai holida: "Otam 1937-yili qamoqqa olingan, keyingi taqdiri to'g'risida bizga hozirgacha hech narsa ma'lum emas. Aniq bo'lmagan rivoyatlarga ko'ra, go'yoki otamiz 1946-yili lagerda vafot qilgan emish", deb yozadi.

Ko'rmaysizmi, u hatto otasining lagerda vafot etgani haqidagi cho'pchaklarga ishonib kelgan. Holbuki, qiblagohining taqdiriga ancha oldin – 1937-yilning dekabrda nuqta qo'yilgan edi...

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Kubri Hamroyevich Abduqayumov – 1886-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi. 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil surgunga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda O'zbekiston kooperatsiya xomashyosida tayyorlovchi bo'lib ishlagan. Doimiy ravishda qarshi targ'ibot olib borganlikda, kapitalistik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Ahmadjon Ibrohimov – 1902-yili Qo'qon shahrida, to'quvchi hunarmand oilasida tug'ilgan. Musulmon maktabida o'qigan, komsomol, partiya a'zosi. 1921-yil oktyabrdan 1922-yil martgacha Qo'qon uyezdi Yaypan qishloq kasaba uyushmasi kotibi, 1922-yil fevralidan 1923-yil iyunigacha Farg'ona viloyati oziq-ovqat komitetining Bag'doddagi vakili, 1923-yil iyulidan 1924-yil yanvarigacha Qudash qishlog'ida oblast moliya bo'limi agenti, 1924-yil fevralidan 1924-yil dekabrighacha Qo'qon shahrida teriga ishlov beruvchilar uyushmasi, 1924-yil dekabrighacha 1926-yil sentyabrigacha oblast teriga ishlov beruvchilar uyushmasining raisi, 1926-yil sentyabridan 1927-yil noyabrigacha Toshkentda VSSPS O'rta Osiyo byuro-sidagi o'qishda kursant, 1927–1929-yillari Andijon okrug kasaba soyuzi raisi, 1929–1931-yillari "O'zbek savdo"ning Andijon shahridagi vakili, 1931–1933-yillari Yangiqo'rg'on rayon ijroiya komiteti raisi o'rinbosari, 1933–1934-yillari Chust rayon ijroiya komiteti raisi o'rinbosari, 1934–1936-yillari MTS direktori, 1936–1937-yillari Norin rayoni MTS direktori vazifasida ishlab kelgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig'ilishida Ibrohimov Ahmadjon otuvga hukm etilgan, hukm o'sha kuni iro qilingan.

Sayfi Kamolov – 1891-yili Andijon shahrida tug'ilgan. 1929-yil 12-dekabrda "Milliy istiqlol" tashkilotining Namangan filialidagi "Milliy qo'mita"ning Andijon sho'basiga a'zo bo'lgani uchun hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi bilan ayblanib, 5 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 31-martda reabilitatsiya qilingan.

Nosir Zokirovich Erkin – 1899-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. "Yangi Farg'ona" gazetasida texnik muharrirlik qilgan. U "Milliy istiqlol" direktivasi bo'yicha aksilinqilobiy tashkilot – "Botir gapchilar"ni tashkil etgan va uning faoliyatiga rahbarlik qilgan. 1925-yildan 1929-yilgacha aksilinqilobiy tashkilot bo'lgan "Temur"da faol ishtirok etganlikda, sovet hokimiyati olib borayotgan tadbirlarni barbod qilganlikda ayblangan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 10-moddasi bilan 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining qaroriga muvofiq 10 yil muddatga konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Xayrullaqori Shomuhamedov – 1890-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent shahridagi o'zbek maktablari o'qituvchilik qilgan. 1929-yil 6-noyabrda hibsga olingan. "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy tashkiloti g'oyalarini targ'ib etishda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan aybdor deb topilib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan 3 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, tadqiqotchi (Davomi kelgusi sonda).



“Kimki xom bo'lsa, zamona zulmidan qolgay omon, El uzum pishsa uzib, xum ichra mahkum aylagay. Mirzo BEDIL”

HIKMAT

BIR ERTAKKA IKKI CHAKUN

Ko'p yillar burun, "Gulxan" jurnalida zamonaviy eston yozuvchisining ertagi mening tarjima-mamda e'lon qilingach, tahririyatga yoshi ulug' bir kishi xuddi shu mazmunda ertak olib keldi. Ammo yakuniy xulosa bir-biriga zid edi. Biz u kishiga yaqinda jurnalda chop etilgan ertakni ko'rsatdik.

Chol yon cho'ntagidan arab imlosidagi ertak-rivoyatlarning 1915-yillardagi toshbosmasini olib ko'rsatdi: *"Buni shaxsan Behbudiy o'qish kitobi qilib tuzgan! Jadidlar maktabida uni o'qiganman"*. O'sha paytlar, 1980-yillarda men kabi juda ko'pchilik jadidlarni, Behbudiy kimgini bilmasdi, albatta. Kitobchani keltirgan kishi ertakni yozmagani, uni

arab imlosida qanday bo'lsa, shunday ko'chirganini aytdi. Ma'lum bo'lishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1910-yillarda Moskvadan litografiya – toshbosma dastgohini sotib oladi. Arab imlosidagi turli kattalikdagi literlar – qabariq harflar to'plami, bo'yoqlar, qog'ozlarga qanday vagona olib keltiradi. Shogirdlaridan birini toshbosmani o'rganib kelishga yuboradi. Dastlab gazeta, so'ng boshlang'ich sinflar uchun til o'rganish va o'qish kitoblari chiqarishga harakat qiladi, bu kitoblarning muallifi ham Behbudiyning o'zi edi. U turli qisqa hikoyalar, ertaklar, latifalarni sodda va tushunarli tilda tahrirlashga harakat qiladi.

Behbudiyning bir armoni – Turkistondagi turkiy xalqlar bir-birining tilini tushunmasligida

edi: *"Surxonlik xorazmlikni, buxorolik vodiyligni tushunmaydi. Turli lahjalar qurshovidan chiqib, yagona adabiy til yaratish bizning burchimizdir"* Haqiqatan, Behbudiyning gazetada e'lon qilgan maqolalari bilan u yaratgan "O'qish kitobi" tili orasida katta farq bor edi. Behbudiy gazeta maqolalari bilan xalqning savodli qismiga murojaat qilgan. "O'qish kitobi" bilan esa jadid maktablarida o'qishni o'rganadigan yosh avlodga yuzlangan. Bu ishda o'zi ibrat bo'lishga harakat qilgan. O'tmishga xos tumtaroq tildan voz kechishga chaqirgan.

Behbudiyning "O'qish kitobi"dagi "Qarg'a va polaponlar" ertagi bilan eston yozuvchisining shu nomdagi mualliflik ertagi orasidagi farq ularning xulosa qismiga oid

edi. Bir qarg'a polaponlarini suv bosish xavfi bo'lgan oroldagi inidan katta o'rmondagi boshqa inga bittadan tashiy boshlaydi. Ona qarg'a uchish davomida polaponidan: "Senga qilgan bu yaxshiliklarimni qanday qaytarasan?" deb so'raydi. "Sizni o'lgunimcha asrayman, kerak bo'lsa, siz uchun oila ham qurmay toq o'taman!" degan javob bo'ladi. Ona qarg'a uch bolasini ham katta o'rmonga eson-omon olib o'tadi. Bu Behbudiy kitobida keltirilgan sharqona tamoyil bo'lib, otamoning farzandlar uchun ulug'ligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy eston yozuvchisining ertagida xulosa o'zgacha. Ikki polapon onasiga xuddi Behbudiy kitobidagi polaponlar kabijavob qaytaradi, qarg'a esa ularni suvga tashlab



yuboradi. Faqat eng kichik polapon onasiga boshqacha javob beradi: "Onajon, uchirma bo'lganimdan keyin o'z hayotim bilan band bo'laman. Seni boshqa ko'rmasam ham kerak. Men bolalarimga sendek yaxshiliklar qilaman". Ona qarg'a shu jo'jasini katta o'rmonga olib ketadi. Bu – masalaga G'arbcha yondashuv edi.

Afsuski, hozir G'arbda bu tamoyil ham jiddiy inqirozga

yuz tutmoqda. Ilgari har qalay oila, farzandlar davomiy-ligi rag'batlantiriladi. Keyingi yigirma yildan beri G'arbda "O'zing uchun yash!" degan tamoyil, turli noinsoniy "oila"lar targ'ib qilinmoqda. Go'yoki, haqiqiy oila, farzandlar tashvishi shaxs erkinligiga tushov bo'lar emish.

Mana, sizga bir ertakning ikki xil yakuni.

Olloyor BEGALIYEV



YANGI NASHRLAR

YUTUQ
NIMADA?

O'zbekiston Milliy kutubxonasida bo'lib o'tgan "Jizzax adiblari" nomli uch jildlik kitob taqdimoti samimiy muloqotlarga boy bo'ldi.



Ma'lumki, qadim va navqiron Jizzax vohasi Hamid Olimjon, Nazir Safarov, Sharof Rashidov, Sarvar Azimov, Oqiljon Husanov, To'ra Sulaymon, Sa'dulla Hakim, Farog'at Kamolova singari o'nlab iste'dodli adiblarga beshik bo'lgan, ularni kamolga yetkazgan tabarruk go'shadir. Ko'p jildli kitobga ushbu mashhur adiblarimiz bilan bir qatorda, yosh ijodkorlarning asarlari ham kiritilgan. Xususan, birinchi va ikkinchi jildlardan qirqqa yaqin mualliflarning nasriy asarlari o'rin olgan bo'lsa, nazm yo'nalishiga bag'ishlangan uchinchi jildning qamrovi yanada keng – yuzdan ziyod shoirlar qamrab olingan. Mumtoz adiblar orasida Maxmur Koriziy, Muazzamxon, Alamkash, In'omxon Mahjur singari avval birmuncha o'rganilgan shoirlar bilan birga, Qozi Poyanda Zominiy, Shermuhammad Jizzaxiy, Urg'uli G'ozg'onliy (Mahzun), Saidxon, Kamoliddin, Narzullo Sharof o'g'li Narziy va Narzulla Umurzoq o'g'li Narziy kabi hali adabiyotimizga yaxshi ma'lum bo'lmagan shoirlarning ijodiy merosi topib kiritilishi adabiyotimiz yutug'idir.

Ushbu kitoblarning dunyo yuzini ko'rishida Yozuvchilar uyushmasining Jizzax viloyati bo'limi rahbari, taniqli adiba Mehribon Abdurahmonovanning

xizmati beqiyos bo'lganini ta'kidlash kerak. Ayniqsa, mumtoz adiblar merosi turli arxivlar va qo'lyozmalar institutidan, qishloqma-qishloq yurib, odamlardan, oilalardan surishtirib topilgani alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning har bir hududi iste'dodlarga boy. O'ylaymizki, hali "Jizzax adiblari" kitobiga kirmay qolgan ijodkorlar ham bisyor – shaxsan o'zim bir vaqtlar G'allaorol tumani "Mehnat bayrog'i" gazetasida mehnat qilgan Meli Hakimov, Kamoliddin Nazar, Abduvohob G'iyos singari shoir-yozuvchilarning yaxshi asarlar yaratganini eslayman, tumanning Avliyoota qishlog'ida yashovchi muallim Imomqul Yaxshiboyevning badiiy dadi va she'rlari uncha-muncha taniqli shoirlar ijodidan baland turadi, poytaxtda yashab ijod qilib kelayotgan Abdulhamid Muxtorov, Aziz Norqulov singari yozuvchilar va yana yetishib kelayotgan ko'plab yosh iste'dodlar bor. Demak, "Jizzax adiblari"ning yangi jildlari davom etishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Kitoblar "Ijod Nashr" va "Adabiyot" nashriyotlarida chop etilgan.

Ikrom BO'RIBOYEV

MUNOSABAT

O'zbekistonda giyohvandlik va narko-jinoyatlarga qarshi kurashish masalasi umum-milliy harakatga aylanib, buning uchun barcha kuch va vositalar safarbar qilinmoqda. 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilangani, yaqinda Samarqand shahrida "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish" mavzusida xalqaro forum o'tkazilgani bu borada muhim qadamlardan bo'ldi.



BEFARQLIK HAM AFYUNDIR

Lekin deyarli har kuni "fosh etilgan giyohvandlik laboratoriyasi yoki uyushgan narkotizm" haqida etni juniktirar xabarlar e'lon qilinyapti.

Giyohvandlik va alkogolizmni faqat shaxsiy tanlov yoki irodasizlik natijasi sifatida ko'rish ancha sodda yondashuv. Aslida, ko'p hollarda insonni bu yo'lga yetaklaydigan omillar ancha chuqur va ko'p qatlamli bo'ladi.

Ishsizlik yoki moliyaviy beqarorlik insonda umidsizlik hissini kuchaytirib, vaqtinchalik "chalg'ish" vositalarini izlashga olib kelishi mumkin. Shuningdek, nosog'lom ijtimoiy muhit, oilaviy nizolar, nazoratning sustligi yoki atrofdagilar ta'siri, ayniqsa, yoshlar uchun hal qiluvchi omilga

aylanadi. Depressiya, yolg'izlik hissi yoki o'zini qadrsiz his qilish kabi holatlar insonni turli afyunlar orqali tasalli izlashga undaydi. Bunday vaziyatlarda faqat jazo yoki qoralash emas, aksincha, psixologik yordam, reabilitatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim maskanlarida profilaktika ishlarini formal uchrashuvlar bilan cheklab qo'ymasdan, ularni tizimli va interaktiv shaklga o'tkazish, giyohvandlikka qarshi alohida modullar joriy qilib, ularda hayotiy qaror qabul qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim, deb o'ylaymiz. Har bir ta'lim muassasasida amaliy psixologlar faoliyatini faollashtirib,

yoshlar uchun anonim murojaat imkoniyatlarini yaratish, ayniqsa, depressiya, yolg'izlik yoki bosimni his qilayotgan o'quvchilarni erta aniqlash va ular bilan individual ishlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Eng muhimi, jamiyatning har bir a'zosi bunday zararli illatlarga nisbatan befarq bo'lmasligi, ogohlik va mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Chunki muammo bir insonniki emas, bu – jamiyatning ertasi, millatning kelajagi masalasidir.

Bahrom BOYMURODOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

TILBILIM



Arafa kuni aslida Ro'za hayitidan oldingi kun emas. Lug'atda: "arafa – Zulhijja oyining 9-kuni, bu kunni hajga borgan ziyoratchilar Arafot tog'ida o'tkazishadi", deb izohlangan.

Ma'lumki, Ramazon hayitidan keyin ikki oy-u o'n kun yoki 70 kun o'tib, Zulhijja oyining 10-kunida Qurbon hayiti nishonlanadi. Arafa kuni aynan Qurbon hayitidan oldingi kundur.

"Arafa" so'zi arabcha "bilmoq, tanimoq" ma'nosidagi "arafa" fe'lidan yasalgan. Bu kunning "arafa" deb atalishi sababi – "Islom ensiklopediyasi"da yozilishicha, "Ibrohim alayhissalomga Jabroil alayhissalom haj ibodatini ruknlarini shu kuni o'rgatgan" ekan. Keyinchalik Ro'za hayitidan oldingi kun ham "arafa kuni" deb atalib ketgan.

Hozirgi o'zbek tilida "arafa" so'zi diniy ma'nodan tashqari bayram yoki biror tantanali marosimdan oldingi kun ma'nosida ham keng qo'llaniladi: yangi yil arafasi, to'y arafasi, qish arafasi va hokazo.

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?

11 soatlik yo'ldan so'ng Bryusseldagi mehmonxonada xonamda TV kanallarini almashtirib o'tirgandim. Birdaniga tanish tog'larini ko'rib qoldim. TVda ovoz past edi, ishonasizmi, odam o'zining tog'larini izohsiz ham tanirkan.

"BBC News"da Michayela Strachanning O'zbekiston qor qoplonini tasvirlash olish uchun Hisor qo'riqxonasidan tayyorlagan hujjatli filmi ketayotgan ekan.

O'zim uchun juda ko'p yangi ma'lumotlar oldim. Masalan, Hisor qo'riqxonasi Nyu-York shahri hududiga teng ekan.

Markaziy Osiyo bo'ylab Xitoygacha 2500 km.dan ortiq cho'zilgan Tyan-Shan tog' tizmasida mingdan ortiq qor qoploni bor deb taxmin qilinadi, ammo uning O'zbekistondagi eng g'arbiy chekkalarida 60 taga yaqini yurar ekan.



XAYP – (inglizcha hype – shov-shuv, oshirib ko'rsatish) muayyan shaxs, mahsulot yoki voqea atrofida sun'iy yoki tabiiy ravishda qiziqish va shov-shuv uyg'otish jarayoni.

Xaypning asosiy vazifasi insonlarning tabiiy qiziqishi va yangilikka e'tibor qaratishi bilan bog'liq bo'lib, u jamoatchilik fikri va ommaviy muhokamalarini shakllantirishda qo'llaniladigan vosita. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalgan va keng

Bryusselda Hisorni ko'rdim



Michayela 7 kun davomida qor qoploni iziga tushadi, qo'riqxona jamoasi taxminiy joylarga qopqonkameralar qo'yadi.

Filmning hayajonli joyi fotoqopqonlardagi kadrlarni ochib ko'rishganda bo'ldi: kameralar ayiqlarni, tog' echkilarini va qorong'ida shoshib o'tib ketgan jayrani tasvirlashga olgan edi. Kutilmaganda Michayela va qo'riqxonachilar baqirib yubordi: go'zal yirik mushuk – qor qoploni, jurnalist ta'biri bilan aytganda, "tog' arvohi" uzun dumini sudrab, o'tib ketdi.

Ko'rib, juda zavqlandim. Albatta, bu film ancha oldin tasvirlash olinib, e'lon qilingandi. Men ko'rganim takroriy efir bo'lsa kerak.

"BBC News"da bizning noyob tabiatni ko'rsatishayotganidan, bu men uchun Bryusselda syurpriz bo'lganidan zavqim toshdi.

Aytgandek, Bryusselda "Euronews"ning orqa ko'chasida yashayapmiz. 2 hafta davomida shu yerda malaka oshiramiz. Ertadan jarayon boshlanadi. Hayotning shunaqa yoqimli syurprizlari ko'p ekan. Xudoga shukr!

Aziza QURBONOVA,
Facebook

ATAMALAR SHARHI

muhokamaga sabab bo'lgan holatlar "xayp bo'ldi" tarzida ifodalanadi.

VAYB – (inglizcha vibe, vibration – tebranish, kayfiyat) inson, joy yoki vaziyatdan seziladigan umumiy muhit, ruhiy holat, kayfiyat ma'nosini anglatadi.



"Yaxshi vayb", "negativ vayb" kabi birikmalar orqali muhitning ta'siri ifodalanadi.

TYUTOR – (inglizcha tutor – ustoz, murabbiy) ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar yoki o'quvchilarning ma'lum guruhiga shaxsan yo'li-yo'riq ko'rsatuvchi mutaxassis.



Unga maktab va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi muallimlar, maktabgacha ta'limda bolalarni tarbiya qiluvchi pedagoglar

ham kiradi. Shu bilan birga, tyutor nafaqat bilim berish, balki mehnat, odob-axloq va g'oyaviy-ma'naviy shakllantirishga qaratilgan tarbiyachi hamdir.

KEYS – (inglizcha case – holat, misol) muayyan vaziyat yoki muammoning amaliy tahlili.



Biznes, huquq va ta'lim sohalarida aniq misol asosida tajriba o'rganish ma'nosida ishlatiladi.

Gazetxonlarimizda mazkur so'zlarning o'zbekcha muqobiliga taklif bo'lsa, telegram orqali @jadidgamurojaat_bot manziliga yuborishlarini so'raymiz.



Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 477
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 005
Lotin yozuvida – 11 472
Media kuzatuvchilar – 84 089
Buyurtma: G – 540
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:20

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI